

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIT TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK:

SHARIPOVA GULCHEHRA FARXOD QIZI

PEDAGOGIK MONITORING ORQALI XORIJIY TAJRIBALAR
ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH

70110103-Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

v.b.dots,p.f.n. R.R. Imomkulov

Termiz-2024

Magistrlik dissertatsiya mavzusi Termiz davlat pedagogika instituti rektorining 202__-yil ___ - _____dagi №_____ -son buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universiteti rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____)raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: v.b.dots,p.f.n. R.R. Imomkulov

Kafedra mudiri: p.f.b.f.d.(Phd)M.J.Mirzayev

Magistratura bo'limi boshlig'i: PhD D. X Abdiraximov

**Sharipova Gulchehra Farxod qizining “Pedagogik monitoring orqali
xorijiy tajribalar asosida ta’lim sifatini boshqarish” mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasiga**

ANNOTATSIYA

Tayanch soʻzlar: Kompetentli yondashuv, Ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik mazmuni va mohiyati, ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari, pedagogik monitoring, tajriba-sinov ishlari samaradorligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi.

Tadqiqot obyektlari: pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish jarayoni bo'lib, Termiz davlat universiteti hamda Termiz davlat pedagogika institutining talabalari respondent sifatida tajriba-sinov ishlariga jalb qilindi.

Ishning maqsadi: pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot natijalarini asoslash va taqdim etish jarayonida tahlil, sintez va umumlashtirish ishlatilgan; empirik: muammo va tadqiqot mavzusini aniqlash uchun oliy ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish, oliy ta'lim muassasalari ichidagi sifat menejmenti tizimlarini tashkil etishning samarali tajribasi hamda ommaviy amaliyotini o'rganib, umumlashtirish; shuningdek, anketa so'rovnomalari va test o'tkazish va ekspert baholash metodlari tadqiqot natijalarini tasdiqlashga imkon berdi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: sifat, ta'lim sifati, ijtimoiy tizimlarni boshqarish, ta'lim sifatini boshqarish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni tizimlashtirish, ilmiy-pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida oliy o'quv yurtlarida sifat menejmentining mavjud xorijiy va mahalliy tajribalarini tahlil qilindi;

- xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish modelini ishlab chiqildi;

- pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarishning metod, usul va vositalarni qo'llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

- muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Xorijiy davlatlar olimlari W.E.Cashin, S.Cook, R.E.Haskell, H.Mintzberg, J.F.Perellon, A.Ashworth, R.Harvey, E.Sallis, S.Brown, R.Pill, S.Brenda kabi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda oliy o'quv yurtlarida ta`lim sifatini boshqarish va sifatini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan.

Biroq, globallasuv sharoitida mamlakatimiz pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida oliy ta`lim sifatini boshqarish jarayonining tashkiliy asoslari va mazmuni, ta`lim muhitini tashkil etishga qo'yiladigan talablar maxsus tadqiq etilmagan.

Amaliy ahamiyati : Oliy ta`limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlariga mos keladigan ta`lim sifatini boshqaruv tizimi taklif etilmoqda; pedagoglar tarkibining sifat boshqaruvi bo'yicha ishlarini tashkil etish takliflar ishlab chiqildi; pedagoglarning malakasini oshirishga qo'yiladigan talablar shakllantirilib, ularni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan; sifatli yondashuvni hisobga olgan holda rahbar xodimlar va pedagoglar uchun mo'ljallangan ta`lim sifatini boshqarishning o'quv-metodik materiallar majmualari ishlab chiqilgan.

Tadqiq etish darajasi va samaradorligi: -sifat, ta`lim sifati, ijtimoiy tizimlarni boshqarish, ta`lim sifatini boshqarish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni tizimlashtirish, ilmiy-pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida oliy o'quv yurtlarida sifat menejmentining mavjud xorijiy va mahalliy tajribalarini tahlil qilish;

- xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarish modelini ishlab chiqish;

- pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarishning metod, usul va vositalarni qo'llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Qo'llanish sohasi: Oliy ta'lim muassasalari.

**Sharipova Gulchehra Farkhod's master's dissertation on the topic
"Educational quality management based on foreign experiences through
pedagogical monitoring"**

ANNOTATION

Key words: Competent approach, Pedagogical content and essence of educational quality management, pedagogical and psychological possibilities of educational quality management, pedagogical monitoring, effectiveness of experimental work, effectiveness of experimental work.

Research objects: the process of managing the quality of education based on foreign experiences through pedagogical monitoring, students of Termiz State University and Termiz State Pedagogical Institute were involved in experimental work as respondents.

The purpose of the work is to develop proposals and recommendations for improving the process of quality management of higher education based on foreign experiences through pedagogical monitoring.

Research methods: analysis, synthesis and generalization were used in the process of justifying and presenting research results; empirical: to study the normative documents in the field of higher education in order to determine the problem and the topic of research, to study and generalize the effective experience and public practice of the organization of quality management systems in higher education institutions; as well as questionnaires and testing and expert evaluation methods allowed to confirm the research results.

Obtained results and their novelty: quality, quality of education, management of social systems, systematization of research on the problems of quality management of education, in order to develop scientific and pedagogical ideas, existing foreign and domestic experiences of quality management in higher educational institutions analyzed;
- a model of education quality management was developed based on foreign experiences;

- practical recommendations were developed based on the use of methods, methods and tools of educational quality management based on foreign experiences through pedagogical monitoring;
- practical recommendations were developed based on the implementation of experimental work on the problem and determination of its level of effectiveness.

The degree of study of the problem. In the studies carried out by scientists of foreign countries such as W. E. Cashin, S. Cook, R. E. Haskell, H. Mintzberg, J. F. Perellon, A. Ashworth, R. Harvey, E. Sallis, S. Brown, R. Pill, S. Brenda, high o The issues of quality management and improvement of the quality of education in educational institutions have been expressed.

However, in the context of globalization, the organizational foundations and content of the process of quality management of higher education based on foreign experiences through pedagogical monitoring of our country, the requirements for the organization of the educational environment have not been specially researched, a management system for the quality of education is offered that corresponds to the modern conditions of the development of higher education;

Proposals for the organization of work on quality management of pedagogues were developed; the requirements for improving the qualifications of pedagogues are formulated and the stages of their implementation are presented; taking into account the qualitative approach, educational-methodical material sets of educational quality management designed for managers and pedagogues have been developed.

Level and effectiveness of research: - quality, quality of education, management of social systems, systematization of research on the problems of quality management of education, existing foreign and domestic quality management in higher educational institutions in order to develop scientific and pedagogical ideas analysis of experiences;

- development of education quality management model based on foreign experiences;

- development of practical recommendations based on the use of methods, methods and tools of educational quality management based on foreign experiences through pedagogical monitoring;
- development of practical recommendations based on implementation of experimental work on the problem and determination of its efficiency level.

Field of application: Higher education institutions.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING ILMIIY- NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§. Ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik mazmuni va mohiyati.....	11
1.2-§. Xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarish pedagogik muammo sifatida.....	24
1.3-§. Pedagogik monitoring asosida ta`lim sifatini boshqarish mavjud holati tahlili.....	39
I bob bo`yicha xulosalar.....	49
II-BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	51
2.1-§. Xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari	51
2.2-§. Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarish modeli	68
2.3-§. Xorijiy tajribalar asosida pedagogik monitoring orqali ta`lim sifatini boshqarish shakl, metod va vositalari.....	78
II bob bo`yicha xulosalar.....	85
III-BOB XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA PEDAGOGIK MONITORING ORQALI TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI.....	87
3.1-§. Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarishga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni.....	87
3.2-§. Xorijiy tajribalar asosida pedagogik monitoring orqali ta`lim sifatini boshqarishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi.....	91
III bob bo`yicha xulosa.....	94

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	96
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	99

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi:Jahonda oliy ta'limning rivojlanishi yangi sharoitlarda amalga oshirilayotganligi bilan bog'liq bo'lib, bir tomondan, oliy ta'lim mavjudligining asosi–an'analarga sodiqlik bo'lsa, boshqa tomondan u integratsiya va globallashtirish jarayonlariga kiritilib, Yevropa va jahon ta'lim makonining bir qismiga aylanmoqda.Dunyoda zamonaviy ta'lim muassasasi–murakkab tashkil etilgan ijtimoiy tizim bo'lib, uning vazifasi insonning butun umri davomida o'z-o'zini yuqori sifatli uzluksiz rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishni ta'minlashdir. Pedagogik tizim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari pedagoglar va talabalarning mutanosib harakatlari bilan bog'liq. Oliy ta'limni rivojlantirish tendensiyalari bo'yicha Yevropa tadqiqotlari birinchi navbatda universitetlarning qadriyatlar asosida ta'lim berish va ta'lim olish sifatiga qaratilishi bejiz emas.

Mamlakatimiz oliy ta'limi har tomonlama modernizatsiya qilish davridan o'tmoqda.So'nggi yillarda kompetentli yondashuvga asoslangan takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari tasdiqlanib, amaliyotga tatbiq etildi. Ta'lim jarayoni natijalari, mazmuni, kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha talablar tubdan yangilandi, milliy tadqiqot universitetlari tarmog'i yaratildi.“Ta'lim muassasalarining eng yaxshi amaliyoti asosida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida strategik va loyiha boshqaruvi, menejment, marketing bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni, kadrlarni

tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni tashkil qilishdan iboratligi”¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Inson kapitalining shakllanishini ta'minlaydigan va xalqaro raqobat talablariga moslashishimizga imkon beradigan yuqori sifatli oliy ta'lim muammosining ustuvorligi davlatning unga bo'lgan e'tiborini belgilaydi. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlaridagi sifat menejmenti tizimining tuzilishi va mazmunini aniqlash va uni ta'minlash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bu muammoning global tabiati va uni hal qilish yondashuvlaridagi dunyodagi umumiy tendensiyalardir. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham “ta'lim tizimini jahon standartlariga javob beradigan darajaga olib chiqishni nazarda tutadi”². Ushbu muammoni hal qilish ta'lim sifatini baholash va boshqarish tizimlarini yaratish bo'yicha xorijiy tajribani batafsil o'rganish va tahlil qilishni talab qiladi, bu esa o'zaro tan olingan baholash tizimlarini joriy etish orqali taqqoslanadigan ta'lim sifatiga erishish orqali Respublikamizni yagona Yevropa ta'lim makoniga yaqinlashtirish va birlashtirish imkoniyatini beradi.

Davlat buyurtmasi bilan bir qatorda yuqori malakali kadrlarni sifatli tayyorlash bo'yicha jamiyat va kasbiy buyurtma faol ravishda shakllantirilmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayoni sifatini boshqarishning samarali tizimlarini yaratishdan manfaatdor, bu esa shaxs va jamiyat, kasbiy hamjamiyat va davlat uchun zarur bo'lgan ta'lim sifatini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son “Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va

¹“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi 515-son qarori.Lex.uz

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022 y.Lex.uz

tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", Shuningdek, 2017-yil 27- iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi va tatbiq etilishida ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti: pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish jarayoni bo'lib, Termiz davlat universiteti hamda Termiz davlat pedagogika institutining talabalari respondent sifatida tajriba-sinov ishlariga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti: pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim sifatini boshqarish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish ko'zda tutiladi:

-sifat, ta'lim sifati, ijtimoiy tizimlarni boshqarish, ta'lim sifatini boshqarish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni tizimlashtirish, ilmiy-pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida oliy o'quv yurtlarida sifat menejmentining mavjud xorijiy va mahalliy tajribalarini tahlil qilish;

- xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish modelini ishlab chiqish;

- pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishning metod, usul va vositalarni qo'llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

-sifat, ta'lim sifati, ijtimoiy tizimlarni boshqarish, ta'lim sifatini boshqarish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni tizimlashtirish, ilmiy-pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida oliy o'quv yurtlarida sifat menejmentining mavjud xorijiy va mahalliy tajribalarini tahlil qilindi;

- xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish modelini ishlab chiqildi;

- pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishning metod, usul va vositalarni qo'llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

- muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini, uning sifatini boshqarish masalalari R.Sh.Axliddinov, U.I.Inoyatov, E.Seytxalilov, Sh.E.Qurbonov va M.A.Yuldoshevlar tomonidan o'rganilgan. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish masalalari R.X.Djurayev, Sh.M.Zufarov, S.T.Turg'unov, J.K.Fozilovlar, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, A.Haitov, P.Shoymardonov, A.Ibragimov, A.Askarov kabi olimlarimizning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mamlakatlari olimlaridan pedagogik menejment nazariyasi ustida Yu.A. Konarjevskiy, B.C. Lazarev, A.A. Orlov, T.I Shamovalar tomonidan tadqiqqilingan bo'lsa, V.M.Polonskiy, A.M.Oleynik, H.P.Plysenko, O.S.Demina, A.M.Vasilevskiy, I.I.Babiy, V.A.Kovalchuk, I.V.Shimkov, Yu.Ligum kabi olimlar globallashuv

jarayonlarining oliy ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar, sifat madaniyatiga doir ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijiy davlatlar olimlari W.E.Cashin, S.Cook, R.E.Haskell, H.Mintzberg, J.F.Perellon, A.Ashworth, R.Harvey, E.Sallis, S.Brown, R.Pill, S.Brenda kabi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini boshqarish va sifatini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan.

Biroq, globallashtirish sharoitida mamlakatimiz pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim sifatini boshqarish jarayonining tashkiliy asoslari va mazmuni, ta'lim muhitini tashkil etishga qo'yiladigan talablar maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda belgilangan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: tadqiqot natijalarini asoslash va taqdim etish jarayonida tahlil, sintez va umumlashtirish ishlatilgan; empirik: muammo va tadqiqot mavzusini aniqlash uchun oliy ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish, oliy ta'lim muassasalari ichidagi sifat menejmenti tizimlarini tashkil etishning samarali tajribasi hamda ommaviy amaliyotini o'rganib, umumlashtirish; shuningdek, anketa so'rovnomalari va test o'tkazish va ekspert baholash metodlari tadqiqot natijalarini tasdiqlashga imkon berdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati: Tadqiqotning natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogik menejment nazariyasining terminologik apparati yangi tushunchalarning mazmunini aniqlash bilan to'ldirildi; "oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarish metodologiyasi", "oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarish" tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritildi; "oliy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlash"; ta'lim jarayoni sub'ektlarini o'z faoliyatining sifatini oshirishga undash, ta'lim sifatini ta'minlash va boshqarish tizimlarini farqlash, ta'lim sifatini boshqarishning sub'ektiv xususiyati, pedagoglarning pedagogik malakasini doimiy ravishda oshirib borish, o'quv jarayonining asosiy sub'ektlari faoliyati sifatini kuzatishda shaffoflik, uzluksizlikni ta'minlashdan iborat.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlariga mos keladigan ta'lim sifatini

boshqaruv tizimi taklif etilmoqda; pedagoglar tarkibining sifat boshqaruvi bo'yicha ishlarini tashkil etish takliflar ishlab chiqildi; pedagoglarning malakasini oshirishga qo'yiladigan talablar shakllantirilib, ularni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan; sifatli yondashuvni hisobga olgan holda rahbar xodimlar va pedagoglar uchun mo'ljallangan ta'lim sifatini boshqarishning o'quv-metodik materiallar majmualari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot faoliyati jarayonida olingan natijalar oliy ta'lim tizimida boshqaruv sifatining takomillashishiga xizmat qiladi.

pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish imkoniyatlari va ularni amalga oshirish omillari aniqlandi va oliy ta'lim rahbarlari uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ish tuzilmasining tavsifi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 96 sahifani tashkil etadi.

I-BOB.XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

1.1-§."Ta'lim sifatini boshqarish" tushunchasining pedagogik mazmuni va mohiyati

Bugungi kunda davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishdir.O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham aynan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.Bu ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan minimal vaqt va kuch bilan yuqori natijalarga erishishga imkon beradigan chora-tadbirlarni asoslash, tanlash va amalga oshirish, strategik qarorlarni qabul qilish hamda loyihalar ustida ishlashni anglatadi. Ushbu muammoni hal qilishda aniq pedagogik monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

"Sifat" tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u:

- "bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xususiyatlar, o'ziga xosliklar; shuningdek u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-ahloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba'zi olim va amaliyotchilar uni ta'lim tizimining o'zlashtirish sifatiga erishishga intilishi;

- boshqalar o'qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi;

- oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko'payishi;

- oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar”³.

“Ta'lim sifati” atamasidan faol foydalanilishiga qaramay, bugungi kunda uning yagona umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Bu uning tarkibi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligidan dalolat beradi. “Ta'lim sifati” tushunchasi ikkita ko'p ma'noli tushunchalar integratsiyasining natijasidir. Yuqorida aytib o'tilganidek, “sifat” tushunchasi falsafiy va amaliy ma'noga ega:

- “sifat – belgi, muhim xususiyat, o'ziga xoslikning aksi;
- sifat – foydaliligi, buyum qiymatining darajasi, talablarga javob
- berish qobiliyati kabi ma'nolar biriktirilgan”⁴.

“Ta'lim” tushunchasi ham murakkab va ichki farqlanish nuqtai nazaridan qaraladi, u fundamental hamda amaliy ahamiyatga egadir. Shunday qilib, ta'limning boshlang'ich ma'nosiga e'tibor qaratish ta'limni dunyo qiyofasini “muhrlash” orqali o'zining mukammal obraziga, shaxsning o'z qadr-qimmatga ega bo'lishidir. Biroq, tushunchaning evolyusiyasi uning funksional tomondan kuchayishi bilan bog'liq. Bugungi kunda ta'lim nafaqat shaxsiy qadriyat va shaxsiy mustaqillikning ifodasi, balki o'quv dasturlari va ularni amalga oshiradigan o'quv muassasalari majmuasi, ta'lim xizmati hamdir. Bundan tashqari, “sifat” tushunchasida bo'lgani kabi, aynan amaliy izohi ko'p qo'llaniladigan ta'rifga aylanadi.

“Sifat va ta'lim” tushunchalarining ikkita ma'nosi o'rtasida muvofiqlik o'rnatilib, bu ta'lim sifatini izohlashda ikkita mumkin o'lgan yondashuvni taklif qilish imkonini beradi. Agar fundamental izohga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ta'lim sifati–shaxsning o'ziga xosligini belgilaydigan va shaxsiy

³ Korotkov E.M. Upravleniya kachestvom obrazovaniya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: Akademicheskii proekt: «Mir», 2006. – 317 c

⁴ Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19

rivojlanishning cho‘qqisiga chiqqanini anglatuvchi obrazidir. Shu ma’noda, ta’lim sifati o‘ta sub’ektiv tavsifga ega, shuning uchun u biron bir ob’ektiv o‘lchov tartiblariga mos kelmaydi. Bu yerda “standart” har bir alohida shaxs uchun belgilanadi va insonning yaxlit hayoti uning yutug‘i ko‘rsatkichiga aylanadi. Agar fundamental izohga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ta’lim sifati – shaxsning o‘ziga xosligini belgilaydigan va shaxsiy rivojlanishning cho‘qqisiga chiqqanini anglatuvchi obraz ekanligi ko‘rinadi.

“Funksional-amaliy kontekstda ta’lim sifati–ta’lim dasturlari, ta’lim xizmatlari, ularni amalga oshirish shartlari va natijalari bilan, a’lim tizimining belgilangan me’yorlari, davlat talablari, ijtimoiy va shaxsiy taxminlariga muvofiqligidir”⁵. Birinchi ta’rifning o‘ta murakkabligi tufayli pedagogika fani asosan konseptuallashtirishga e’tiborini qaratgan, pedagogik amaliyot esa amaliy, ob’ektiv ma’nolarda ta’lim sifatini ta’minlash, saqlash va yaxshilashga qaratilgan.

Ta’lim sifati, baholashning ikkita yondashuvini: ta’lim xizmatlari bo‘yicha–xizmatlar doirasi, ya’ni ta’lim dasturlari, xizmatlar sifati, xizmatlardan foydalanish imkoniyati, xizmat ko‘rsatish sifati; tayyor mahsulotning xususiyatlari bo‘yicha aniqlashni taklif qiladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta’lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta’lim muhitida amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim sifati har qanday davlatning muvafaqqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

Ta’lim sifati va uni ta’minlovchi omillar: ta’lim mazmunining fundamentalligi, ma’lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta’lim jarayoni

⁵Shamuratov R. Oliy ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat univ. s.1:8-son,70.2019-modda.

ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog‘liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud. Ta’lim sifati – bu nafaqat ta’lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi. Ta’lim sifatini boshqarish (ta’lim sifati menejmenti) ta’limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan va amalda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O‘z o‘rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta’lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o‘zi, bajarish yo‘llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta’lim sifatini ta’minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi. Demak, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to‘ldiradi, ya’ni u ta’limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta’lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o‘quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta’lim sifatini ta’minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta’lim muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi. Bundan tashqari, o‘quv muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta’lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o‘zini-o‘zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi,

mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqdigi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi. Oliy ta'lim muassasasida, shuningdek, har qanday sanoat yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida umumiy sifat menejmenti tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- "ta'lim muassasasining rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarishda umumiy sifat menejmenti tamoyillari yondashuvini joriy qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish;

- tashkilotda sifatni umumiy boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, ya'ni tashkilotning siyosati, maqsadlari va vazifalarini, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

- tashkilot rahbari tomonidan boshqariladigan Sifat kengashini tuzish, tashkilot va har bir bo'limda sifat uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tayinlash;

- jamoadagi barcha xodimlar o'rtasida tashkilotda umumiy sifat menejmenti tamoyillari– yondashuvni joriy qilish va butun ish majmuasidan keyin olinadigan imtiyozlar to'g'risida xabardor qilish;

- me'yoriy-huquqiy qo'llab-quvvatlash, nazorat qilish va hisobot berish, xabardorlik va javobgarlik tizimini rivojlantirish;

- sifat bo'yicha qo'llanmani, tashkilotning barcha jarayonlari uchun ko'rsatmalarni, tashkilotning har bir xodimi uchun ish yo'riqnomalarini yozish;

- sifatni oshirish uchun asosiy yo'nalishlarni tanlash, jarayonlarni takomillashtirish uchun guruhlar yoki jamoalar tuzish va ushbu guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarni amalga oshirish"⁶.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanishi davri o'tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to'g'ri keldi. Ushbu davrda A.Feygenbaum (Armand V. Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo'llab quvvatlash va sifatni

⁶ Begimkulov U.Sh. Pedagogik Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. P.f.d. disser. –T., 2007. 305-b.

yaxshilash bosqichlaridan iborat. Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control, qisqacha – TQC) tushunchasini kiritdi.

Bugungi kunga kelib TQCning bir-nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) “oliy ta’lim”lari mavjud. Shuning uchun, TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o’rtasida yagona bir fikr yo‘q. Asosiylar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan:

- “tashkilotning iste’molchiga yuz tutganligi;
- rahbarlikning roli;
- xodimlarni jalb etish;
- jarayonli yondashuv;
- boshqarishga tizimli yondashuv;
- muntazam takomillashtirish;
- dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;
- ta’minlovchilar bilan o‘zaro manfaatli munosabat”⁷.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa’y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g‘oyaga aylandi. Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida sifatning umumiy boshqaruvi (Total Quality Management – TQM) kontseptsiyasi shakllandi. Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi rahbarlikning tashkilot, uning xodimlari, iste’molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi. Ta’lim muassasasi rahbariyatining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta’lim muassasasining sifatni ta’minlash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

⁷Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-iqbol", 2006. 221-b

- “sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta’lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g‘risida strategik qarorni qabul qilishi;

- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta’minlashni kiritish, uni ham ma’naviy va ham moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas’ul vakilni tayinlash;

- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog‘ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;

- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste’molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);

- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o‘tkazib turish”⁸.

Ta’lim sifati ko‘p jihatdan ta’lim dasturlarining sifatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli ta’lim muassasalarida ularni tasdiqlash, davriy tekshirishlar va monitoringning rasmiy mexanizmlari bo‘lishi kerak.

Dasturlarning sifati quyidagilar bilan ta’minlanadi:

- “kutilayotgan ta’lim natijalarini ishlab chiqish va nashr etish;

- o‘quv rejasi, dasturlarning tuzilishi va mazmuniga doimiy e’tibor;

- o‘quv resurslarining mavjudligi;

- bosh tashkilotlarning dasturlarini tasdiqlashning rasmiy tartiblari;

- talabalarning yuksalishi va yutuqlarini nazorat qilish;

- dasturlarni muntazam tekshirib turish, shu jumladan, mutaxassislar tomonidan tashqaridan tekshirilishi;

- ish beruvchilar, mehnat bozori vakillari va boshqa tegishli tashkilotlar bilan doimiy aloqada bo‘lish;

- talabalarni sifatni ta’minlash jarayonlarida ishtirok etishi”⁹.

⁸ Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-iqbol", 2006 y. 226-b

⁹ Sadovnichiy V., Kruzhalin V., Artyushina I., Shutilin V. Ta’lim sifatini qanday hisoblash mumkin // Ekspert. - 2008. 16-b

Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxonalar menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e'tiborini iste'molchilarga va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti(ISO)ning 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo'llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish tajribasi sifatni boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish imkoniyatini beradi:

1. Ta'lim muassasasining ta'lim sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirish va ta'lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (Rejalashtirish) – talab qilinayotgan sifatga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatning me'yoriy, tashkiliy, uslubiy va vositaviy asoslarini shakllantirish.

2. Ta'lim sifatini boshqarish–ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha muntazam faoliyatlar ketma-ketligini aks ettiruvchi sifatni shakllantirish, asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslar bilan ta'minlash jarayonlari.

3. Jarayonlar monitoringi va o'zgarishlar kiritish–sifatning erishilgan darajasini belgilangan darajasi bilan solishtirish va baholash jarayoni, barcha manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqani amalga oshirish, boshqarish tizimi va faoliyatiga o'zgarishlar kiritish. Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarish bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'luvchi elementlardan iborat uzluksiz va yopiq kechadigan jarayondir.

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad iste'molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashdir. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur:

- "davlat ta'lim standartlari talablariga erishishda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish;

- muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish;
- ta'lim muassasasida boshqarish tizimini yaxshilash;
- ta'lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta'minotini optimallashtirish;
- ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish;
- ta'lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsizlik sharoitlarni yaratish;
- ta'lim muassasasini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash"¹⁰.

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar:

- "ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatining asosiy mezon ko'rsatkichlarini belgilash;
- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati to'g'risida tahliliy hisobotlar va ma'ruzalar tayyorlash;
- ta'lim sifatini ta'minlash va doimiy yaxshilash uchun ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish;
- ta'lim muassasasining rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish"¹¹.

Zamonaviy ta'lim qattiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab qiladi. Ta'limda nazorat va boshqaruvning uyg'unligini ta'minlash sifat va samaradorlikning kalitidir. O'zbekiston ta'lim tizimida ta'lim sifati tizimli nazorat qilinmasa, o'quv jarayonida muayyan muammolar yuzaga keladi. Shuning uchun ta'limni boshqarish o'quv jarayonini, ta'lim turini, uning imkoniyatlarini hisobga olishi va shu bilan sifat menejmentining samarali ishlashini ta'minlashi kerak.

¹⁰ Hakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish zaruriyati // Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 1. 2-b

¹¹ Mamajonov I.G, Ta'limda innovatsiya va innovatsion faoliyat// "Iqtisodiyotva innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal. № 6. Noyabir – Dekabr, 2020 yil.223-b

Ta'limda boshqaruv samaradorligi va sifatining o'zgarishi to'g'ri tanlangan boshqaruv modeli va uni uzluksiz ta'lim tizimida izchil qo'llash amaliyoti bilan bog'liq. Zero, "Islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyoning rivojlangan, zamonaviy davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashi ilm-fan va ta'lim rivoji, bu borada jahon miqyosida raqobatlasha olishimiz bilan uzviy bog'liqdir"¹². Shuningdek, u ta'limning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim tizimini isloh qilish, sifatli ta'lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta'limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu vazifalar ta'lim ustidan adolatli boshqaruv va universal nazorat tizimini rivojlantirish va mavjud shakllarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta'lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish maqsadida nazorat va boshqaruv jarayonini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarida ta'lim sifatini ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini boshqarish-bu ko'p funksiyali murakkab muammo. U muayyan miqyosda (chunonchi, davlat, tarmoqlararo, mintaqa, ta'lim muassasasi doirasida), shuningdek, ma'lum yo'nalishlarda (tashkiliy, tarkibiy, mazmuniy, metodik, kadrlar, resurslar) hal qilinadi.

"Ta'lim sifati - jamiyatdagi ta'lim jarayonining holati va samaradorligini, jamiyatning (turli ijtimoiy guruhlarining) ehtiyojlarini va talablarini insonning uqarolik, maishiy va professional vakolatlarini rivojlantirish va shakllantirishda muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriyasi bo'lib hisoblanadi"¹³. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv faoliyatining turli jihatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plami bilan belgilanadi: ta'limning mazmuni, ta'lim shakllari va usullari, moddiy-texnika bazasi, ta'lim olgan yoshlarning malakasini oshirishni ta'minlaydigan kadrlar va boshqalar. Shuningdek, ta'lim sifati o'qituvchining

¹²Hakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish zaruriyati //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 1.3-b

¹³ Alikarieva A'loxon. "Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirishda xorij tajribasi", №4 2022.3-b.

ta'lim jarayonining barcha ishti rokchilarining ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan talabalarni tayyorlashning yuqori natijalari bilan ajralib turadigan ta'lim faoliyatining tobora ortib borayotgan darajasidir.

Jahonda ta'lim sifatiga yagona talablar bankini yaratish, umumiy talablar ustidan nazoratni ta'minlash va shu orqali ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, bu boradagi ishlar sezilarli yutuqlarga erishdi va butun dunyo bu jarayonni qo'llab-quvvatlamoda. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, nazorat va boshqaruv tartib-qoidalarini xalqaro standartlarga muvofiq joriy etish, uzluksiz ta'lim sohasida hamkorlik mexanizmlarini yaratish uchun salmoqli huquqiy asos yaratdi. Xususan, 2017-yilda mamlakatimizda ta'lim sifatini nazorat qilish, kadrlar tayyorlash sifatini xolis baholashni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Shu bilan birga, nazorat va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, belgilangan huquqiy baza orqali ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi samarali ta'lim muhitini yaratish borasidagi ishlarda muammolar, markazlashgan va byurokratik to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Ta'lim sifatini nazorat qilish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish mezonlari va tabiiy fanlar bo'yicha malakalarning o'sish dinamikasini tahlil qilish orqali o'quvchilar bilimni davlat standartlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi kamchiliklar va hamkorlikning muvofiqlashtirilmagan jihatlari hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu muammoni hal qilish emas, balki vaziyatni to'g'rilash yo'lidir. Binobarin, ta'lim sifatini oshirish, uzluksiz ta'limni modernizatsiya qilish, uning muammolarini hal etish uchun boshqaruv tamoyillari, mezonlari va yondashuvlarini o'zgartirish, nazorat ishlarini olib borish zarur. Masalan, xalqaro baholash dasturlarida qo'llaniladigan testlar, anketalar yoki test materiallarining boshqa shakllari o'quvchilarni erkin fikrlashga, mantiqiy

fikrlashga va tahlil qilishga undaydi. Bizda esa testlar o'quvchilarning mazmuni bo'yicha xotirasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, amaldagi o'quv dasturi va darsliklar doirasida ishlab chiqilgan. Buning asosiy sababi bizda testologiya fanini hali joriy etilmaganligi, testlarni loyihalash qoidalarini o'rgatish masalasi hal etilmaganligidir. Shuning uchun, O'zbekistonda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha rivojlangan davlatlar metodologiyasini qabul qilish, ta'lim sifati ustidan nazoratni erkinlashtirish, markazlashgan boshqaruvga barham berish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, bu boradagi vazifalar oddiy va xolis tizim yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Masalan, fan va ta'lim rivojlanishini baholash va monitoring qilish uslublarini yangilash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorijiy tajribadan foydalanilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qayd etamiz:

-ta'lim mauassasasida ta'lim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, ya'ni ta'lim maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini belgilash;

-ta'lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg'otish; maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o'zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi);

-natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir;

-ta'lim sifati menejmenti–bu har qanday, tasodifiy, oldingisidan ko'ra yaxshiroq, o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta'limning oldindan rejalashtirilgan natijalariga, ya'ni muayyan o'quvchining eng yuqori imkoniyatlarga erishishi uchun tashkil qilingan va yo'naltirilgan alohida boshqaruvdir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funksiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma'noda kafolatlangan natijaga erishish demakdir.

-bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro andozalar darajasida

ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois ta'lim sifatini ta'minlash va uni milliy ta'lim tizimiga joriy etish uchun ilg'or xorijiy davlatlarning nazorat va boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biridir.

1.2-§.Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish pedagogik muammo sifatida

Ta'lim sifati va uni boshqarish masalalariga ilmiy nuqtayi nazardan yondashish xorijda XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Mazkur jarayonda ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari dastavval ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim sifati va uni boshqarish muammolari aksariyat tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimi va uni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari misolida tahlil qilingan.

Ta'lim sifati muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati monitoringi, sifatning ta'minlanishi va boshqalar haqida so'z yuritiladi. Bu atamalarning ishlatilishiga aniqlik kiritish uchun ularning ingliz tilidagi ma'nosi va o'zbek tilida ularga mos keluvchi so'zlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz."Sifat nazorati (quality control) kutilayotgan sifatning muayyan darajasiga erishishga yo'naltirilgan sifatni baholashning tashqi protseduralarini belgilashda qo'llaniladi. Sifat monitoringi (quality monitoring) sifatning u yoki bu mezonlari va indikatorlarini bevosita baholash yoki kuzatish protseduralarini ko'zda tutadi, sifat "darajasi"ni aniqlaydi, shuningdek, moddiy sarf-harajatlarning samaradorligini baholash bilan ham bog'liq bo'ladi"¹⁴.

"Ta'lim sifati" tushunchasi 1998 yilda oliy ta'lim bo'yicha Parijda bo'lib o'tgan Butunjahon konferensiyasida alohida maqomga ega bo'ldi, deb hisoblash mumkin"¹⁵. Ushbu forumda sifat darajasini doimiy ravishda ko'tarib

¹⁴ Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-iqbol", 2006 yil. 176-b

¹⁵ Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-iqbol", 2006 yil. 182-b

borishga oliy ta'limning uzoq muddatli istiqboldagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraldi. Oliy ta'lim sifati mummolariga doir ingliz tilidagi nashrlarda qator bosqichlardan (rejalashtirish, baholash va monitoring, tahlil va boshqa bosqichlar) iborat ham tashqi, ham ichki baholashni-keng ma'nodagi sifatni baholash sistemasini anglatuvchi "quality assessment" atamasi ko'proq ishlatiladi. Tor ma'noda sifatni baholash protseduralarini belgilashda "quality evaluation", "quality audit", "quality judgement" kabi atamalar qo'llaniladi. Shuningdek, Yevropada sifatni ta'minlash yoki sifat kafolati tarzida tarjima qilinishi mumkin bo'lgan "quality assurance" atamasi ham ishlatiladi. Sifatni ta'minlash sistemasi baholash bilan bog'liq bo'lgan bosqichlardan tashqari ularni joriy etish bosqichlarini takomillashtirishga doir izdanish va qaror qabul qilish bosqichlarini ham qamrab oladi. Sifatni ta'minlash sistemasining eng muhim xususiyati uning davriyligi va takomillashib borishga moyilligidir.

Ta'lim sifatini baholash mummosi hamma vaqt dolzarb bo'lgan, faqat keyingi yillarda bu masala yechimiga sistemali majmuaviy tarzda yondashila boshlandi. Chet el olimlari va amaliyotchilari ta'lim sifatini tadqiq qilish doirasida ta'lim sifati tushunchasining o'zini aniqlashtirmoqdalar, baholash mezonlarini ishlab chiqmoqdalar, yuqori sifatni ta'minlovchi omillarni tasniflamoqdalar, ta'lim sifatini boshqarish va monitoringi muammolarini o'rganmoqdalar. Ta'limni baholashning o'zaro tan olinadigan sistemalarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta'lim sifati ta'minlash Yevropa mamlakatlari yagona ta'lim makonini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir.

1995-yili YuNESKO tomonidan "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" nomli dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda asrlar almashinuvi davrida oliy ta'limni rivojlantirishning dunyo miqyosidagi tendensiyasi va vazifalari bayon etilgan. Dasturda mavjud 151 banddan 18 tasi bevosita ta'lim sifatiga bag'ishlangan. Ularda, jumladan, sifat konsepsiyasining "Oliy ta'lim sifati mazkur sistemaning mazmun doirasi, vazifalari yoki sistemadagi sharoit va

me'yorlarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali tushuncha"¹⁶ tarzida tavsiflovchi keng talqini keltirilgan. Ta'lim sifatini baholash muammosi hamma vaqt dolzarb bo'lgan, faqat keyingi yillarda bu masala yechimiga sistemali majmuaviy tarzda yondashila boshlandi. Chet el olimlari va amaliyotchilari ta'lim sifatini tadqiq qilish doirasida ta'lim sifati tushunchasining o'zini aniqlashtirmoqdalar, baholash mezonlarini ishlab chiqmoqdalar, yuqori sifatni ta'minlovchi omillarni tasniflamoqdalar, ta'lim sifatini boshqarish va monitoringi muammolarini o'rganmoqdalar. Ta'limni baholashning o'zaro tan olinadigan sistemalarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa mamlakatlari yagona ta'lim makonini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Dunyoda mavjud ta'lim sifatini baholash sistemalarini shartli ravishda ikkita modelga bo'lish mumkin.

Birinchi model–oliy ta'lim muassasasining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan “fransuzcha” modeli. Bunday model Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi. Ushbu mamlakatlarda davlat organlari tomonidan baholashning maqsadi shakllantiriladi, baholashning eng muhim jihatlari belgilanadi, ta'lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar qabul qilinadi. Ta'lim muassasasi tomonidan o'zini o'zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e'tibor tashqi baholashni samarali o'tkazishga qaratiladi. Tashqi nazorat me'yoriy va ilmiy jihatdan ta'minlanish borasida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsada, epizodik tarzda miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslangani sababli mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta'lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkonini bermaydi.

“Oliy ta'lim sifatini baholashning ikkinchi–“inglizcha” modelining asosini ta'lim muassasasi tomonidan o'zini o'zi baholash tashkil qiladi. Bu model Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Lotin Amerika mamlakatlarida qo'llaniladi. Fransiyada oliy ta'lim muassasasi (oliy ta'lim muassasalari)

¹⁶ Инновационный менеджмент: Учебник / Под. ред. Горфинкеля В. Я – М.: Вузовский учебник, 2006. 257-с.

faoliyatining tashqi nazorati Oliy ta'lim muassasalari nibaholash bo'yicha Milliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi"¹⁷. Mazkur qo'mitaning bosh vazifasi muayyan oliy ta'lim muassasalari va mamlakatdagi oliy ta'limning holatini davriy ravishda xolis baholashdan iborat. Baholash natijalari axborot va tavsivaviy xarakterga ega bo'lib, dastlab prezident, parlament va hukumatga, so'ngra nashrlar shaklida keng jamoatchilik e'tiboriga yetkaziladigan yillik hisobotlar tarzida bayon etiladi.

Germaniya va Buyuk Britaniyada yaqin davrlargacha ta'lim sifatini ta'minlashdagi bosh rol o'quv muassasalari va bo'linmalarining rahbarlari va o'qituvchilar tarkibining kompetentligi va mas'uliyatiga asoslangan ichki nazoratga ajratilgan edi. Germaniyaning oliy ta'lim muassasalarida ichki nazorat asosan fakultetlar, aniqrog'i ulardagi o'quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib borilar edi. Germaniyada davlat darajasida akkreditatsiya qilish yo'lga qo'yilmagan bo'lib, davlatga tegishli oliy ta'lim muassasalarilar avtomat tarzida akkreditatsiyaga ega bo'lardi. Oxirgi yillarda mamlakatda ichki nazoratning yetarli emasligi to'g'risidagi xulosaga kelindi va 1995-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari rektorlari konferensiyasi rahnamoligida ko'p bosqichli murakkab tuzilmaga ega bo'lgan sifatni tashqi nazorat qilish sistemasi joriy qilina boshlandi. Sloveniyada, aksincha, oliy ta'lim muassasalarilar birgalikda oliy ta'limda sifatni baholash qo'mitasini ta'sis etadilar va nazorat uchun o'zlari javob beradilar. Shunday qilib, G'arbiy Yevropa oliy ta'lim sistemasining kengayishi va uni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga sarflanayotgan harajatlarning ortishi ta'lim muassasalarining oldiga mutaxassislarni tayyorlash sifatini namoyish qilish va shu orqali sarflanayotgan mablag'larni oqlashni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Shu bilan birga Yevropa oliy ta'limining baynalminallashuvi xalqaro miqyosda ta'lim jarayoni sifatini baholash sistemasini yaratishning muhimligi va zaruriyatini belgilaydi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvesiya) institutlari va universitetlarida tashkil etilgan nazorat va sifat sistemasi

¹⁷ Jalolov J.J. va boshqalar. Maktab tashqi iqtisodiy faoliyati va marketing. - T.: Bilim, 2005. 231-b

ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Norvegiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayoni va o'quv dasturlarini baholashga qaratiladi. Baholash jarayoni hukumat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlanadigan tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

Hozirda ta'lim vazirligi tarkibida nazorat bo'yicha Kengash tashkil etilgan bo'lib, u boshqa qo'mitalardan mustaqil tarzda ta'lim muassasasining sifatini baholash siyosatini yuritadi. Finlyandiyada ichki va tashqi baholash birgalikda amalga oshiriladi. Daniyada nazorat hukumat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadigan tashqi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ichki o'z-o'zini baholashda tashqi ekspertlar tomonidan olingan ma'lumotlarga ham tayanadi. Finlyandiyada oliy ta'lim nazorati va sifati bo'yicha qo'mita 1996-yilda tashkil etilgan. Qo'mitaning bosh vazifasi – oliy ta'lim muassasalari va ta'lim vazirligiga baholash sistemasini rivojlantirishga ko'mak berish. Vazifasiga ko'ra mazkur qo'mita nazorat qilishdan ko'ra ko'proq maslahat beruvchi organga o'xshaydi. Uning vazifalari qatoriga ta'lim muassasasi ichida sifatni baholash sistemasida ishlash uchun mutaxassislarni tayyorlash, baholash sistemasini ham davlat, ham alohida ta'lim muassasalari darajasida ta'minlash, kasbga yo'naltirilgan institutlarni attestatsiyalash uchun hujjatlarni tayyorlash kiradi. Shvetsiyada oliy ta'lim sohasidagi milliy siyosat darajasida baholashning to'rtta yo'nalishi mavjud. Birinchi yo'nalish ta'lim sub'yektlari va o'quv dasturlarini mamlakat miqyosida baholash, ikkinchi yo'nalish– akkreditatsiyalash uchun ta'lim dasturlarini baholash, uchinchi yo'nalish– bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida yirik bo'lmagan ta'lim muassasalarini baholash, to'rtinchi yo'nalish–butun ta'lim jarayonini umumiy baholashni qamrab oladi.

AQShda ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish va baholash sistemasi akkreditatsiya deb nomlanadi. Akkreditatsiya AQSh universitetlari va kollejlardagi ta'lim sifatini baholashning yetakchi shakli sifatida qaraladi. Mazkur sistemada baholash ikkita yo'nalishda olib boriladi: ichki va tashqi. Tashqi sistemaga federal, tegishli shtatning organi, institutni akkreditatsiyalash

agentligi, ta'lim muassasasi o'quv dasturlarini akkreditatsiya qilish bo'yicha ixtisoslashgan agentlik jalb qilinadi. Ichki baholash jarayoni o'quv dasturlarining bajarilishi bo'yicha universitet qo'mitasining hisoboti, yangi o'quv dasturlarini rejalashtirish va rivojlantirish, talabalarni ular o'zlashtirishining natijalari bo'yicha baholashdan iborat. Akkreditatsiya natijasida ta'lim dasturi yoki institut faoliyatini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi yoki undan mahrum qilinadi. Oxirgi yillarda "fransuz" modelini qo'llayotgan Yevropa mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'zini-o'zi baholash jarayonlarining joriy etilishi va rivojlantirilishi kuzatilmoqda. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida ta'limni baholash jarayoni ta'lim muassasasi tomonidan o'z faoliyatini tartibga solish bo'yicha to'la javobgarlikni o'z zimmasiga olishi tomon siljimoqda va bunda hukumat ko'makchi rolini o'ynamoqda. O'zini-o'zi baholash tashqi kuzatuvchilarni ishontirish va qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilishga tayyorgarlik nuqtai nazaridan o'tkazilib, ta'lim muassasasi tomonidan o'z faoliyatini takomillashtirish yuzasidan maxsus amalga oshiriladigan jarayon emas.

Turli mamlakatlarda amalda bo'lgan sifatni baholash milliy sistemalari nafaqat maqsadlari, vazifalari, baholash mezonlari va tadbirlari bo'yicha, balki mazkur jarayonga hukumat (davlat), jamoat va maxsus organlar va muassasalarning jalb etilganlik darajasi kabi ko'plab ko'rsatkichlar bo'yicha bir-biridan farq qiladilar. Hamma joyda sifatni baholashning rasman e'lon qilingan maqsadlari sifatni belgilangan standartlar darajasida ushlab turish yoki undan oshirish bo'lsada, amalda mazkur masalani tushunishning o'zida (hisobotlarni kengaytirish va takomillashtirish evaziga nazoratni kuchaytirish zaruriyatidan to sifatni baholashni ta'lim muassasasi tomonidan o'zini-o'zi baholashga qadar) turli-tumanlik kuzatiladi. Shunga qaramasdan, ta'lim sifatini baholash ikkita tarkibiy qismdan, ya'ni ichki (o'z-o'zini baholash) va tashqi baholashdan iborat bo'lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo'lishi mumkinligi barcha holatlarda tan olinadi. Umuman olganda mamlakatimizda ta'limni boshqarish sistemasining

sifat jihatidan yangi darajasi an'analar, boy tarixiy va ma'naviy merosni hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham keng foydalanish lozim.

Hozirgi bosqichda ta'lim va tarbiyada novatorlik yondashuvi jadal rivojlanayotganligi ta'lim tashkiloti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardandir.

Yangicha sharoitlarda "ta'lim" tushunchasi mazmunini tubdan qayta idrok etish zarur. Bu uzluksiz ta'limning o'xshash tizimi yordamida ijtimoiy va kasbiy moslashgan yaxlit shaxs mazmunining maqsadi, vazifalari, metodlari va vositalarini shakllantirishni qayta idrok etishni bildiradi. Shu munosabat bilan bilimlar va hayotga "ta'lim" tushunchasini shaxs tashabbusining ahamiyatini ta'kidlaydigan tarzda yondashuv sifatida tushunish lozim. Shu bois "ta'lim" tushunchasi bu tez o'zgaruvchan dunyoda yashash uchun zarur bo'lgan yangi metodologik usullar, ko'nikmalar, ko'rsatmalar va qadriyatlarni o'z ichiga olishi kerak"¹⁸. Boshqacha aytganda, ta'lim shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga ega yangi vaziyatlarni muvaffaqiyatli uddalay olishi uchun harakatlanuvchi jamiyat tomonidan prognoz qilingan zarur ijtimoiy-axloqiy jarayondir.

An'anaviy tarzda vujudga kelgan ta'lim tizimi strategik jihatdan yo'l qo'yib bo'lmaydigan "qo'llab-quvvatlovchi" ta'lim funksiyasini bajargan holda "ta'lim" so'zining yangicha talqiniga oid maqsadli ko'rsatmalarni amalga oshirishga yo'naltirilmagan. Ko'maklashuvchi ta'lim faqat ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy yo'nalishlarning mavjud tizimini saqlashga, ya'ni konservativ-barqaror jamiyatning normal faoliyat yuritishiga yo'naltirilgan. Shu bois bunda shaxs allaqachon ma'lum bo'lgan, takrorlanuvchi vaziyatlardan chiqa olishi uchun mo'ljallangan, qayd qilingan usullar va qoidalar ustunlik qiladi.

Ta'lim sifati-ta'lim tizimining ajralmas belgisi bo'lib, resurslar bilan ta'minlash, o'quv jarayoni, ta'lim natijalarining normativ talablarga, ijtimoiy va shaxsiy talablarga muvofiqligi darajasini aks ettiradi. A.M.Moisev "Ta'lim sifati-talabalar, jamiyat va buyurtmachilar talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta'lim natijasi xususiyatlari va tavsifining o'ziga xos jamlanmasi"¹⁹

¹⁸ Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.312-b.

¹⁹ Ignatiev M.N. Ta'lim sifati aniqlashga tizimli yondashuv [Matn] M. N. Ignatiev, E. V. Stambulchik // Iqtisodiyot nazariyasi jurnali. 2012.-№ 4. 199-201-b

deb ta'rif beradi. "Ta'lim sifati-shunchaki bilimlar hajmi va ko'nikmalar tarkibi emas, balki zamonaviy mutaxassisning asosiy modelini tashkil etuvchi faoliyatning muayyan turlariga shaylik demakdir"²⁰. Ta'lim sifati o'quvchilarni bilimga boyitish va ularning ongida statistik tuzilmasini shakllantirish bilan emas, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ular ayotini organik dinamika bilan ta'minlash orqali tavsiflanadi.

Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim tashkiloti rahbarlarining asosiy e'tibori pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini uchaytirishga emas, balki kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish hamda ularning vujudga kelish manbalari va sabablarini tahlil qilishga qaratiladi. Bularning hammasi boshqaruv kadrlaridan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metod va usullarini egallash, nazariy qoidalarni amaliyotda qo'llash mahoratini talab qiladi. Boshqacha aytganda, ular boshqaruvda xilma-xil - intuitiv, empirik, tajriba, formal va ilmiy mantiqiy yondashuvlardan foydalanishlari darkor. Ta'lim sifatini boshqarish ushbu jarayonga ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarini kiritishni ko'zda tutadi. Faqat sharti shuki, tashkiliy tuzilma pedagogik jarayon qatnashchilari o'rtasidagi qat'iy "vertikal" aloqalardan "vertical" bilan "gorizontal" aloqalarni bir-biriga uyg'un holda qovushtirishga o'tsagina shunday bo'ladi.

Ta'limni innovatsion tashkil etishda faoliyatning ikki (ta'lim beruvchi bilan o'quv-bilish) turi emas, balki yaxlit holdagi o'quv-kasbiy vaziyat boshqaruv birligi hisoblanadi (I. Bogachek). Bir guruh olimlar (O. G. Xomeiki, M. M. Potashnik, A. V. Lorenshev) taklif qilgan metoddan foydalangan holda ta'lim sifatini boshqarish jarayonining tasnifini ko'rib chiqamiz. Ta'lim tashkiloti doirasidagi ichki boshqaruv innovatsiyaning kombinatorli tipidan iborat, ya'ni ilgari ma'lum bo'lmagan elementlarning tashkiliy tuzilmaning yangi modeli asosida yangicha konstruktiv qo'shilishi hamda ilgari bunday qo'shib foydalanilmagan prinsiplarning amalga oshirilishi sodir bo'ladi.

²⁰Ignatiev M.N. Ta'lim sifatini aniqlashga tizimli yondashuv [Matn] M. N. Ignatiev, E. V. Stambulchik // Iqtisodiyot nazariyasi jurnali. 2012.-№ 4. 199-201-b

Yangilikning o'z o'tmishdoshiga munosabati ularning quyidagi toifasini tavsiflaydi. Ta'lim tashkiloti darajasida sifatni boshqarishga nisbatan olganda aytish mumkinki, u boshqaruv faoliyatining shu paytgacha amal qilib kelgan mohiyatini o'zgartiradi va to'ldiradi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat:

-birinchisi- bitiruvchilarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan nominal, normativ talablarning bajarilishiga qat'iy va to'liq yo'naltirish mavjud bo'lgan sharoitda ta'lim tashkilotining faoliyati sifatini boshqarish. Boshqaruv nazariyasida bunday yondashuv konservativ yondashuv hisoblanadi (N. A. Selezneva);

-ikkinchi bosqich- rivojlanish sifatini boshqarish. Bunda o'zgartiruvchi-ijodiy, tadqiqot xususiyatiga ega faoliyatni amalga oshirish, yangiliklarni o'zlashtirish, o'z ilg'or pedagogik texnologiyalarini yaratish ko'zda tutiladi. Ta'lim tashkiloti barcha xodimlarining birgalikda harakat ishi bir-biriga muvofiq bo'lishiga erishish va tashkiliy madaniyat bunday boshqaruv samaradorligining zarur sharti bo'lib qolishi kerak.

Tashkiliy madaniyat ta'lim tashkilotining eng muhim quyidagi vazifalarini funksional jihatdan hal qilishda yordam beradi:

-muvofiqlashtirish -belgilangan jarayonlar va xatti-harakat qoidalari

-yordamida amalga oshiriladi, bu jamoa barcha a'zolarining kelishilgan holda harakat qilishi imkonini beradi;

-motivatsiya-bajarilayotgan ish mazmuni ta'lim tashkiloti rahbaritomonidan tushuntirib berilishini ko'zda tutadi;

-ixtisoslashtirish-ta'lim tashkilotining shunga o'xshash ta'lim tashkilotlaridan xarakterli farqqa ega bo'lishi demakdir;

-kadrlarni jalb qilish-ta'lim tashkilotining boshqalaridan afzalligini targ'ib qilish, pedagoglarning ishlashi uchun maqbul shart-sharoit yaratish orqali hal qilinadi va h. k. (K. Shols).

Uchinchi belgi. Ta'lim tashkiloti rahbarlarida innovatsion madaniyatning shakllanganligi. Bu ularning yangi bilimlar va faoliyat turlarini egallashga, o'zgarishlarga, xavf-xatarga va javobgarlikka tayyorgarligini bildiradi.

Boshqarish sohasidagi turli mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish yangi tipdagi menejer shaxsining eng muhim sifatlarini, xususan, mehnat jamoasi bilan maqbul munosabatda bo'la bilish mahoratini ajratish imkonini beradi. Yangi tipdagi boshqaruv kadrlarining asosiy vazifasi-“Yangiliklar kiritishga yo'naltirilgan boshqaruv munosabatlarining mos tizimini yaratish”dan iboratdir (Yu. Krasovskiy). Ta'lim tashkiloti rahbarlari tomonidan yangi tashkiliy-psixologik madaniyat ma'nosidagi kasbiy mahoratni oshirib borishning quyidagi obyektiv davrlarining o'zlashtirilishini ham shunga kiritish mumkin:

- “o'z imkoniyatlari bilan jamoa imkoniyatlarini o'rganish;
- o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari orqali jamoa imkoniyatlarini bilish;
- jamoa imkoniyatlaridan o'z kasbiy mahoratini oshirib borish uchun foydalanish;
- jamoa imkoniyatlarini o'zida va o'zi orqali ro'yobga chiqarish”²¹.

Boshqaruv kadrlarining pedagoglar va o'quvchilarning har qanday foydali tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va o'zlari ham shu ishga qo'shilishga qodirliklarini ham innovatsion belgi deb hisoblash mumkin. Tavakkalchilik va as'uliyat ta'lim sifatini boshqarishda boshqaruv kadrlarining, ayniqsa, etakchining muhim xususiyatlaridandir. Ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy bilimdonligi novator negizini tashkil qiladi. Rahbar va uning o'rinbosarlarining kasbiy bilimlari necho g'li darajada ekanligiga ko'p jihatdan innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati boshqaruv nazariyasi, iqtisodiyot va sotsiologiya, siyosatshunoslik va huquq, pedagogika va psixologiya, gigiena va fiziologiya sohalariga bog'liq.

Zamonaviy mutaxassis shaxsiga, muhandis-pedagoglar tarkibi faoliyatini va o'quvchilarning o'qishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatiga oid normativ alablarni bilish ham ushbu ro'yxatga to'liq kiradi. Bunda zamonaviy ta'lim tashkilotlarini boshqarayotgan shaxslarning kasbiy-tashkiliy, axloqiy-psixologik sifatlari birinchi o'ringa chiqadi.

²¹ Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.258-b.

To'rtinchi belgi. Ta'lim tashkiloti boshqaruv korpusi psixologikpedagogik madaniyatining yuqori darajadali.Bunday sifatning shakllanganligi ta'lim sifatini ta'minlashga doir faoliyatni loyihalashtirishning zarur shartidir. Ta'lim sifati va ta'lim tashkilotini boshqarishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun rahbarlar konkret mahorat va ko'nikmalarni egallashlari zarur. Biz psixologik-pedagogik mahoratni, eng avvalo, shular qatoriga kiritamiz. Ularning mohiyati, P. T. Frolov ta'kidlab o'tganidek, topshiriqni ongli zaruratga, faoliyat ning ichki ehtiyojiga aylantirish maqsadida mantiqiy va psixologik usullar yordamida xodimlarga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Ko'rsatma-metodik xarakterdagi mahorat ham eng muhim ahamiyat kasb etadi. Bular tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:

- pedagogik, boshqaruv faoliyati maqsadlarini ta'riflash;
- uning natijalarini tahlil qilish va baholash;
- ta'lim sifatini boshqarishni tashkil etishda pedagogik metod va usullardan oqilona foydalanish;
- xodimlarga malakali yordam ko'rsatish;
- ilmiy konferensiyalar, seminarlarni tashkil qilish va ularning ishida qatnashish;
- rahbarning jamoatchilik fikrini vujudga keltirish, ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, mas'uliyat hissini tarbiyalash orqali muhandis -pedagog xodimlarga ta'sir ko'rsatish mahorati.

Ta'lim tashkiloti rahbarlari pedagoglarga, o'quvchilarga va ularning otaonalariga yagona pedagogik talablarni qo'yishlari kerak. Bunda har bir xodimning individual imkoniyatlarini hisobga olish va chuqur o'rganish, jamoa ldida turgan vazifalarni hal qilishda har kimning rolini ko'rsatishga katta o'rin beriladi.

Beshinchi belgi. Ta'lim tashkilotida o'z ishini o'zi uyushtirishning yuqori darajasi.Ta'lim tashkilotining o'zini o'zi rivojlantirishi boshqaruv kadrlarining edagoglar jamoasi bilan birgalikda tashqi ta'sirlarni idrok etish va ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish asosida ta'minlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarishda rahbarlarning asosiy e'tibori pedagog xodimlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini to'liqroq ochishga, zarur mustaqillikni berishga va pedagoglarga nisbatan keraksiz vasiylikni bartaraf etishga qaratiladi. Bularning hammasi muhandis-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilarning o'zishini uyushtirishi imkonini beradi. Xodimlarning yuksak kasbiy mahorati o'zishini o'zi uyushtirishi darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi (I. Kaoru). Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarishning ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan tizimi innovatsiyaning asosiy belgilarini qanoatlantirishi kerak. Ammo bunda ta'lim tashkilotidagi boshqaruv faoliyati umumiy usuliyatga ega bo'lgan quyidagi qonuniyatlarni ham aks ettirishini ta'kidlab o'tish zarur:

- boshqaruv tizimi bilan pedagogik jarayonning birligi;
- markazlashtirish bilan markazlashuvdan chiqarishning uyg'unligi;
- boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlarning nisbatdorligi.

Ta'lim sifatini boshqarish jarayonini loyihalashtirish Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyati muammolarini oldindan konseptual tarzda ishlab chiqish ta'lim sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirishning invariant asosga ega bo'lgan jarayonini ko'rib chiqishga o'tish imkonini berdi. Bu turli ta'lim tashkilotlarida undan foydalanish imkonini yaratdi. Eng avvalo, har bir konkret holda boshqaruv jarayoniga va uning yakunlariga ishning mavjud real ahvol, ta'lim tashkiloti hayot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning rahbarlarining individual fazilatlari va boshqa omillar katta ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlab o'tamiz. Shu bois ta'lim sifatini boshqarishni tizimli yondashuv asosida loyihalashtirish yo'llarini ko'rib chiqqan holda, boshqaruv tarkibining standart, qat'iy tartibga solingan harakat dasturini bermaslikka intilamiz. Bizningcha, ta'lim tashkiloti boshqaruv xodimining e'tiborini "ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini boshqarish tizimini tahlil qilishning morfologik, arkibiy, funksional jihatlarini, boshqaruv jarayonlarining etakchi yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish shakllari va usullarini egallashga qaratish muhimdir. Ta'lim sifatini boshqarish jarayonini tadqiq qilishning morfologik

jihati uni tarkibiy qismlarga, elementlarga ajratishni hamda asosiy xususiyatlari va ifatlarini tegishli ravishda ham miqdor, ham sifat jihatidan tavsiflashni ko'zda tutadi. Bunda, eng avvalo, zikr etilgan tizim sifatini va uning yaxlitligini elgilovchi omillarni hisobga olish muhimdir.

Ta'lim sifatini boshqarishda asosiy e'tibor loyihalashtirish faoliyatiga beriladi. Bu sifatni boshqarish metodologiyasi tomonidan ko'zda tutilgan-unda sifat tadqiq qilish va loyihalashtirish, rivojlanish dasturlari va konsepsiyani ishlab chiqish bosqichida qo'yilishi kerak. Sifatni boshqarish sohasi mutaxassislari mahsulot yoki xizmatlar sifatini loyihalashtirishda ustuvorlik ishlab chiqarish bosqichigacha beriladi, deb ta'kidlamoqdalar. Bunga tadqiqotlar, loyihalashtirish va ishlanmalar bilan bog'liq faoliyat kiradi, ya'ni ushbu bosqichlarda sifat asoslariga zamin tayyorlanadi (A. T. Kurakin, I. G. Leonov, L. I. Novikova). Tadqiqotlar ishlab chiqarish (ta'lim) jarayonlariga loyihalashtirish sifati kuchli ta'sir etishini ko'rsatadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda loyihalashtirish deganda bo'lg'usi ishlarning taxminiy variantlarini tuzish va uning natijalarini bashorat qilish tushuniladi.

Ta'lim tashkilotida sifatni boshqarishning ilmiy tashkil etilishi loyihalashtirish bosqichlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan holda va batafsil ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bunda sifatini oshirish, buning uchun tegishli shakl va metodlarni tanlashga doir konkret vazifalar va chora tadbirlarning asosi tarzda prognoz qilinishi va belgilanishi nazarda tutiladi."Boshqaruv xodimlari faoliyati dasturi rejali faoliyatning umumiy strategiyasini belgilab beradigan prinsiplar tizimi bo'lmish dasturli -maqsadli yondashuv asosida ishlab chiqiladi"²² (A. T. Kurakin, L. I. Novikova). Dasturlimaqsadli yondashuv aksariyat tadqiqotchilar (V. G. Afanasev, Ye. P. Golubkov, Yu. A. Konarkevskiy, I. S. Ladenko, G. A. Tulchinskiy, I. K. Shalaev va boshqalar) tomonidan tizimli yondashuvni aniqlashtirish sifatida ko'rib chiqilmoqda. Masalan, birovlar ushbu yondashuvni boshqaruv faoliyatiga tatbiqan pirovard natijaga yo'naltirilgan maqsadli dasturni ishlab chiqish sifatida tavsiflashsa (I. S. Shalaev), boshqalar dasturlarning

²² Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim boshqaruv. – T.: Voris, 2006.216-b.

shakllantirilishini boshqaruv jarayonlarining rejalashtirilishidan iborat deb hisoblashadi (I. S. Ladenko, G. L. Tulchinskiy).

Hozirgi zamon sharoitida professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni belgilangan o'quv me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan bo'lib, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlari ehtiyojlari asosida integratsiyalashtirilgan holda hamkorlikda ishlab chiqilmoqda. Xalqaro andozalargamos keluvchi professional ta'lim tizimida qanday muammo va kamchiliklar mavjud degan savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob berishda muammo va yechimlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

Birinchi, yaqin yillar ichida butun dunyoda inson salomatligiga salbiy ta'siretuvchi yuqumli kasalliklar jumladan, koronavirus infeksiyasi kabi viruslar aholio'rtasida gigiena qoidalariga rioya etish, ijtimoiy masofani saqlash kabi profilaktikchora-tadbirlar ta'lim muassasalarida ham o'quv jarayonini an'anaviy shaklidan masofaviy ta'limga o'tishga ehtiyoj tug'ildi.

Oliy ta'lim tizimida aksariyat oliy ta'lim muassasalarida MOODLE dasturiy ta'lim platformasi asosida masofaviy ta'lim tashkil etildi. Biroq ayni shu vaqtda professional ta'lim tizimida ham o'quv jarayonini masofaviy tarzda amalga oshirishda "Aqlli ta'lim" platformalari mavjud emasligi sababli ijtimoiy tarmoqlar va turli xil mesendjerlar orqali o'quv mashg'ulotlari olib borildi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini pasayishi, nazorat tizimidagi muammolar, o'quv mashg'ulotlarga bilim oluvchilarning o'z vaqtida qatnashmasligi, hududlardagi internet tarmog'idagi muammolar, mashg'ulot materiallari bit-xajmi turlicha bo'lgani sababli ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar hamda pedagog xodimlar va bilim oluvchilarda ortiqcha internet trafiklari sarflanishi oqibatida xarajatlarning ko'payishiga va buning natijasida ayrim bilim oluvchilar dars mashg'ulotiga qatnashmasligi kabi ta'lim uzluksizligiga salbiy ta'sir etuvchi muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ta'lim muassasasining sifat menejmenti ta'limni tashkil etish, ta'minlash va boshqarish jarayonini o'z ichiga olgan va asosan o'quv jarayoni bilan bog'liq

bo'lgan murakkab tizimdir. Ta'lim sifati bo'yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarimizning fikricha, ta'limda menejmentning maqsadi o'quvchilarning umumiy boshqaruv nazariyasi bo'yicha bilim saviyasini oshirish, ularda bu bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Boshqacha aytganda, asosiy e'tibor o'quvchilarning bilimini oshirish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim muassasalarida bunday ishlar ichki nazorat bo'limlarini halol va qonuniy ishlashga, o'qituvchilarni yanada puxta ishlashga, kamchiliklarni aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Boshqa bir tadqiqotchining fikricha, "ta'lim sifati muammolarini hal qilishda tizimli yondashuvdan foydalangan holda barcha omillarni birgalikda boshqarish zarur. Zamonaviy oliy ta'limni boshqarish-murakkab, ko'p komponentli tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, bunda asosiy maqsadga, ya'ni o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning mehnatga va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta'minlashga erishishda ta'lim muassasasidagi barcha sub'ektlarning sa'y-harakatlarini shu maqsad yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

1.3-§. Pedagogik monitoring orqali ta'lim sifatini boshqarishing mavjud holati tahlili

Mamalakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli ishlar amalga oshirildi, oliy ta'lim milliy tizimini xalqaro ta'lim va ilmiy tadqiqot muhitiga amalga kirib borishini har tomonlama ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar qo'llanildi va shu bilan ta'limni xalqarolashtirishga maqbul sharoitlar yaratildi. Ta'limda nazorat va boshqaruv tizimi professional, ochiq, oshkora va adolatli, mantiqiy izchillik bilan tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, ta'lim muassasasida ishning qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, boshqaruv modelining to'g'ri tanlanganligi, ta'lim sifatini nazorat qilishning adolatli tashkil etilganligi ta'lim samaradorligiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat ta'lim tizimi uchun tashqi nazorat mexanizmlari ishlab chiqilib, ular

orqali ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va monitoring qilish amalga oshirilmoqda. Sertifikatlashtirish orqali menejmentni o'rganish, nazorat qilish va unga ta'sir ko'rsatish tartiblari har yili takomillashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Ta'lim sifati va samarali boshqaruvini tahlil qilish ta'limning bir qator sifat xususiyatlarini aniqlashni taqozo etadi. Binobarin, ta'lim sifati uni tahlil qilish va nazorat qilish samaradorligini oshirishga, uning natijalari asosida boshqaruvni tashkil etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, tizimli yondashuv va aniq tahlil boshqaruvning zaif tomonlari va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Jahonda oliy ta'lim sifatini kafolatli ta'minlash, uning mustaqilligi va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish orqali inson kapitalining rivojlanishini ta'minlashga mos keladigan jozibador o'quv jarayonini tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda oliy ta'lim sifatini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar, Bolonya deklaratsiyasi va "CAMPUS Asia" Monitoring, APQN (Osiyo Tinch-Okeani sifat tarmog'i), INQAAHE (Oliy ta'lim sifatini taminlash agentliklari xalqaro tarmog'i), Yevropa yagona ta'lim muhiti, modulli ta'lim, modulli-kredit tizimi, ECTS kreditlari, ECTS o'quv rejalarini orqali aniq rivojlanish yo'nalishlarini belgilanmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy-markazlarida oliy ta'limni xalqarolashtirish va isloh qilishga qaratilgan qator lohiya dasturlari doirasida oliy ta'lim sohasidagi innovatsion o'zgarishlar orqali sifatni oshirishning yaxlit modelini yaratish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar asnosida jamiyatning zamonaviy sharoitlari va talablariga ko'proq moslashgan inson resurslari bilan bog'liq jarayonlarni faollashtirishga o'tish, oliy ta'lim sifatini oshirish borasidagi muammolarni hal qilishda konsensusga erishish imkonini beradigan natijalar olinmoqda. Bundan kelib chiqib, xalqaro tajribalar asosida pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan integratsiyaga kirishishi sharoitida oliy pedagogik ta'lim sifatini rivojlantirishning me'yoriy asoslari

yaratildi, ta'lim mazmunini ilg'or xorijiy tajaribalar asosida takomillashtirish, ta'lim mazmunini kompetentli yondashuv tashkil etishga erishilmoqda. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan davlat dasturlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy asosda tashkil etish o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Oliy ta'lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish" masalasi ustuvor vazifa sifatida baholangan. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekistonda ta'lim tizimini nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, har bir ta'lim muassasasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'zining boshqaruv kengashi tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi²³. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini nazorat qilish ham davlat zimmasiga yuklatilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim barcha bosqichlarda va ta'lim jarayonida davlat tomonidan belgilangan standartlar asosida izchil va tizimli ravishda boshqariladi.

Turli xalqaro ta'lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa dasturlar faol amalga oshirilmoqda, xorijiy ta'lim muassasalari bilan sheriklik munosabatlari o'rnatildi, mamlakatta'lim faoliyatiga jalb qilinayotgan xorijiy ilmiy-pedagogik kadrlar hamda tahsil olayotganlar salmog'i ko'payib bormoqda. Oliy ta'lim tizimini xalqaro e'tirof etilgan talablar va standartlar darajasiga ko'tarish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, shuningdek O'zbekiston

²³ Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. "O'zbekiston" T.: 2023 yil. Lex.uz

Respublikasi oliy ta'lim muassasalari reytingini xalqaro darajada oshirish bo'yicha tadbirlar qo'llanilmoqda. Oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza rivojlanishda davom etmoqda. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligiga alohida maqom bermoqda va yangi yaratilgan, nisbatan kam o'rganilgan xalqarolashtirish sharoitida ushbu muhim yo'nalish rivojini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni yanada dolzarblashtirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligini tadqiq etish jahon miqyosida dolzarb muammo hisoblanib, bu jarayon kundan-kunga olimlar e'tiborini tobora ko'proq tortmoqda. Bu holat mustaqil davlatlarning istiqboldagi rivojida samarador, raqobatbardosh ta'lim xizmatlari bozorining ajralmas roli bilan belgilanadi va bunda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi alohida progressiv-rivojlanuvchi mohiyat kasb etib, ta'lim muassasasi faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi muhim yo'nalish sifatida ajratiladi.

Rivojlangan xalqaro hamkorlik oliy ta'lim muassasasiga ilmiy pedagogik kadrlar faoliyati uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, moddiy texnik azani rivojlantirish, ta'lim sifatini tushirmay ta'lim oluvchilarning yanada ko'proq miqdorini qamrab olish, zamon talablariga javob beradigan yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish, fan, ta'limni rivojlantirish, ehtiyoj talabiga javob beradigan mutaxassislarni hamkorlikda tayyorlash va qayta tayyorlash uchun xorijiy investisiyalarni jalb qilish va shu kabi ishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi sifatida xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan erkin va teng huquqli o'zaro munosabatlarni hamda maldagi qonunchilik asosida xalqaro ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan intellektual zaxiralar almashish, akademik mobillik, madaniyatlararo va shbilarmonlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida o'rnatiladigan aloqalarni tushunish mumkin. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oliy ta'lim muassasasining zamonaviy tuzilishida xalqaro hamkorlik uning faoliyatining barcha yo'nalishlarining tabiiy va

ajralmas tarkibi sifatida namoyon bo‘lib, oliy ta’lim muassasasining tashqi va ichki muhitini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shishi aniqlandi.

Oliy ta’lim muassasasining xalqaro hamkorligini rivojlantirishni boshqarishning nazariy-metodologik yondashuvlarini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, aksariyat olimlarning fikriga ko‘ra rivojlanishni boshqarish jarayonining o‘zi murakkab, karama-qarshi va ko‘p qirrali hodisa sifatida tavsiflanadi. Bu holat ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega bo‘lgan zamonaviy oliy ta’lim muassasasining xalqaro hamkorligini rivojlantirishda ko‘plab amaldagi yondashuvlarni ko‘rsatib berdi.”Ta’limni xalqarolashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasasi faoliyatining o‘ziga xosligini hisobga olib, xalqaro hamkorlikni maqsadli ravishda rivojlantirishga hamda aniq natijalarga erishishga bo‘lgan aktual zaruratdan kelib chiqib, zamonaviy oliy ta’lim muassasasining xalqaro amkorligini rivojlantirishni boshqarish uchun uning strategik maqsadlarini hisobga olgan holda loyihaviy yondashuvni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir (strategik-loyihaviy yondashuv)”²⁴.

Zamonaviy oliy ta’lim muassasasining xalqaro hamkorligini rivojlantirishni boshqarishga taklif etilayotgan strategik-loyihaviy yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki asosiy yondashuvning (strategik va oyihaviy) uyg‘unlashuvi bo‘lib, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning strategik maqsadlarini alohida loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish orqali ochib berishga imkon beradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, xalqaro hamkorlikning istiqboldagi rivojida tasavvur qilish qiyin bo‘lgan strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi, boshqa tomondan, qisqaroq muddatlarga mo‘ljallangan turli loyihalarni amalga oshirish orqali strategik maqsadlarga erishish yo‘llarini tezlik bilan o‘zgartirish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasasining xalqaro hamkorligini rivojlantirishni boshqarish o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali, kompleks va o‘zgaruvchan jarayonni aks ettiradi. Bu jarayonda ta’lim muassasasining ham ichki, ham tashqi muhiti xususiyatlarini

²⁴ Shamuratov R. Oliy ta’lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat univer siteti ilmiy xabarnomasi:soni.1:8-son, 7-b.

hisobga olish nihoyatda muhimdir. Tadqiqot jarayonida xorijiy ta'lim muassasalari tajribasini umumlashtirish natijasida oliy ta'lim muassasasi xalqaro hamkorligining 74 ta aspekt xususiyatlarining kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish imkoniyatini yaratdi. Bulardan tashqari, ichki va tashqi muhitning niqlangan xususiyatlari strategik-loyihaviy yondashuvdan foydalangan paytda oliy ta'lim muassasasi xalqaro hamkorligini rivojlantirishni boshqarishning ob'ektiv mezonlarini shakllantirish imkonini beradi. Ta'limni baholashning o'zaro tan olinadigan sistemalarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa mamlakatlari yagona ta'lim makonini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir.

Dunyoda mavjud ta'lim sifatini baholash sistemalarini shartli ravishda ikkita modelga bo'lish mumkin.

Birinchi model—oliy ta'lim muassasasining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan “fransuzcha” modeli. Bunday model Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi. Ushbu mamlakatlarda davlat organlari tomonidan baholashning maqsadi shakllantiriladi, baholashning eng muhim jihatlari belgilanadi, ta'lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar qabul qilinadi. Ta'lim muassasasi tomonidan o'zini o'zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e'tibor tashqi baholashni samarali o'tkazishga qaratiladi. Tashqi nazorat me'yoriy va ilmiy jihatdan ta'minlanish borasida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsada, epizodik tarzda miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslangani sababli mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, ta'lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkonini bermaydi.

“Oliy ta'lim sifatini baholashning ikkinchi – “inglizcha” modelining asosini ta'lim muassasasi tomonidan o'zini o'zi baholash tashkil qiladi. Bu model Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Lotin Amerika mamlakatlarida qo'llaniladi. Fransiyada oliy ta'lim muassasasi (oliy ta'lim muassasalari) faoliyatining tashqi nazorati oliy ta'lim muassasalarini baholash bo'yicha Milliy

qo'mita tomonidan amalga oshiriladi"²⁵. Mazkur qo'mitaning bosh vazifasi muayyan oliy ta'lim muassasalarilar va mamlakatdagi oliy ta'limning holatini davriy ravishda xolis baholashdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishi mamlakatimizdagi har bir sohada rivojlanish bo'lishi bilan belgilanadi. Bu esa albatta, mamlakatning iqtisodiy hamda ma'naviy taraqqiy etishiga asos hisoblanadi. Bu jarayonni yaxshilash maqsadida davlatimiz tomonidan qaror qabul qilingan. Ushbu qaror 2019-yil aprel oyida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2030-yilga qadar Xalq ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirish hamda o'qitish metodikalarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada talabalar o'zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti – PISA reytingiga ko'ra O'zbekiston 2030-yilga qadar jahonning 30ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.

Ta'lim sifatini boshqarish – "boshqaruv subyekti" tomonidan ta'limdagi barcha obyektlar va jarayonlarga nisbatan sifatning qaror topishi, ta'minlanishi, rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatish hamda ular tomonidan ta'riflangan maqsadlar, me'yorlar, standartlarga muvofiq teskari aloqani uyushtirish. Ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadi bu – ta'lim tizimi va uning tarkibiy qismlari DTS asosida tavsiflanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarning umumiy shkalasini ta'minlash. Sifatni kafolatlashning yana bir jihati ta'lim oluvchilar uchun ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlashdir. Masalan, ISO standartlari va ta'lim natijalarini baholashning o'zgarib borayotgan tizimlari yordamida individual o'quv faoliyati natijalarini sifatni kafolatlashga urg'u bergan holda baholashning yangi tizimi rivojlanmoqda. Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash ushbu soha orqali barcha sohalarni rivojlantirishdan iborat. Ya'ni buning sababi har bir sohaning ravnaq topishi bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va kadrlar tizimini isloh qilish

²⁵ Shamuratov R. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat univer siteti ilmiy xabarnomasi: soni.1:8-son,7 b.

amalga oshirilayotgan bir paytda ta'lim tizimini boshqarish sifatini oshirish o'ta dolzarb masaladir.

O'zbekistonda 2020 yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning asosiy maqsadi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish edi. Har qanday islohot esa boshqaruv bilan bog'liq. Odatda biz boshqaruv deganda, rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning faoliyatini tushunamiz. Aslida esa jamoaning har bir a'zosi o'zini va ishini butunning bo'lagini boshqarganday yaxshi boshqarsa, maxsus boshqarishga ehtiyoj kam bo'ladi. Har bir xodimning o'zi boshqarish vazifasini boshqara oladi.

YUNESKO hujjatiga muvofiq, oliy ta'lim sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan ta'lim faoliyatining uchta jihati mavjud.

"Birinchidan—oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining yuqori akademik malakasi bilan kafolatlangan xodimlarning sifati hamda ta'lim berish va tadqiqotlarning integratsiyasi, ularning ijtimoiy talabga muvofiqligi bilan ta'minlangan ta'lim dasturlarining sifatidir"²⁶.

Ikkinchidan—ommaviy oliy ta'lim haqiqatga aylangan sharoitda, faqat ta'lim dasturlarini diversifikatsiya qilish, o'rta va oliy ta'lim o'rtasida mavjud bo'lgan turli tafovutlarni bartaraf etish hamda yoshlarni ta'lim va kasbiy yo'naltirish va rag'batlantirish mexanizmlarining rolini oshirishdir. Va, nihoyat, uchinchidan – oliy o'quv yurtlarining infratuzilmasi va "jismoniy ta'lim muhiti" sifati, ular faoliyatining "barcha shartlari" ni, shu jumladan, kompyuter tarmoqlari va zamonaviy kutubxonalarni qamrab oladi"²⁷. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim boshqa tovarlar va xizmatlar kabi bozor munosabatlarining bir xil ob'ekti bo'lib, alohida ta'lim muassasalari va umuman ta'lim tizimi o'z xizmatlari sifatini oshirish, zamonaviy sifat menejmenti tizimini yaratish va joriy etish orqali ularning raqobatbardoshligini qanday oshirishi, jamiyatimiz kelajagiga bog'liq. Ta'lim, fan va ishlab

²⁶ Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19.

²⁷ Макинтайр Питер. Институциональная проверка агентством по обеспечению качества. Источник: Обеспечение качества высшего образования: европейский и белорусский опыт: Сб. науч. ст. / Под ред. Е.А. Ровба и др. Гродно, 2017. – С. 43-46

chiqarishni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ta'lim sifatini oshirish pirovard natijada mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish tezligi va chuqurligini belgilaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni har bir ishtirokchining faoliyati uni bu jarayonni boshqarishga daxldordir. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini o'z vaqtida monitoring qilib borish muhim hisoblanadi. Monitoring boshqaruvning muhim omiliga aylanishi uchun o'zida muayyan faoliyat tizimini aks ettirgan holda tashkil qilinishi kerak. Monitoring boshqaruvning muhim omilga aylanishi uchun o'zida muayyan faoliyat tizimini aks ettirgan holda tashkil qilinishi kerak. Monitoringning tashkil etilishi aniq bir o'quv-tarbiyaviy jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda monitoringni xilma-xil shakl, tur va vositalarini uyg'unligini aniqlash va tanlash bilan bog'liq. Shu sababli, monitoring qandaydir ish yoki faoliyat turlarini saqlab qolish yoki uni o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos hisoblanishi bilan birga o'zi qaror qabul qilish sohasi ham bo'lishi kerak.

Innovatsion jarayon bo'lgan ta'lim sifatini boshqarish quyidagi belgilarga ega:

Birinchi belgi. Faoliyatning yangi usuli mavjudligi.

Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, valimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim o'ladi. Ilmiy adabiyotlarda maxsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash obyekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.

Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'jektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda

tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog‘liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Shu bois boshqaruv tarkibi ta’lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo‘llay bilishikerak.

Ikkinchi belgi. Rivojlangan tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Oldingi paragrafda ta’kidlab o‘tilganidek, jamoada me’yorlar tizimlarini, qadriyatlarini, urf-odatlar va an’analarni yuqori darajada shakllantirmasdan turib, ta’lim sifati boshqarib bo‘lmaydi. Bularning hammasi ta’lim jarayonining barcha qatnashchilari o‘rtasida uyg‘un o‘zaro munosabatni vujudga keltirish imkonini beradi. Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini monitoring qilish qamrovi keng bo‘lib, unda asosiy e’tibor “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning bajarilishi, ichki tartib-qoidalarga amal qilinishi, o‘quv fanlarini o‘qitilishi va o‘quvchilar bilimi, mahorati, ko‘nikmalarining sifati hamda Davlat ta’lim standartlari talablarini to‘liq bajarilishini ta’minlash kabi sohalarni ham o‘z ichiga oladi.

Ta’lim-tarbiya sohasini monitoring qilish quyidagicha maqsadlarni ko‘zda tutadi:

- “mavjud ahvolni o‘rganish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash choralarini aniqlash;
- samaradorlikni oshirish haqida tavsiyalar berish;
- istiqbol rejalari uchun takliflar berishdan iborat”²⁸.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini monitoring qilishning bir nechta yo‘nalishlari bo‘lib, me’yoriy hujjatlar ijrosi, monitoringi, o‘quv jarayonini sifati aniqlash monitoringi, tarbiyaviy jarayon monitoringi, metodik ishlar monitoringi, innovasiion jarayon monitoringi, oliy ta’lim jamoasidagi ma’naviy –ruhiy muhitni o‘rganish monitoringi va boshqa shu kabilardan iborat. Hozirgi kun zamonaviy ta’limni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun monitoringni barcha yo‘nalishlari muhim ahamiyatga egadir.

²⁸ Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim boshqaruv. – T.: Voris, 2006.238-b.

Monitoring yoʻnalishlarining har biri bir nechta faoliyat turlarini qamrab olgan boʻlib, ayniqsa oʻquv jarayonini monitoring qilishda oliy taʼlim pedagogik kadrlar bilan taʼminlanganligini yaʼni oʻqituvchilarning soni, mutaxassisligi, maʼlumoti, yoshi, jinsi va boʻsh oʻrinlar mavjudligi oʻrganilsa, pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasi monitoringida esa ularning toifalari, mehnat staji, attestasiya natijalari, malaka oshirish va qayta tayyorlovdan oʻtganligi, koʻrik-tanlovlar, musobaqalar, olimpiadalar va anjumalarda ishtirok etganligi aniqlanadi. Monitoring jarayonida har bir oʻqituvchi-pedagogning darslarga tayyorgarligini monitoring qilish orqali ularning dars rejimlari, dars ishlanmalari sifati va zarur oʻquv vositalari bilan taʼminlanganlik darajasi tahlil etiladi. Bu yoʻnalishda eng muhim faoliyat turlaridan biri dars jarayonining sifati va samaradorligini monitoring qilishdir. Shuningdek, oʻquv fanlarining oʻqitilishi, taʼlim-tarbiya jarayoniga ilgʻor pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, axborot kommunikasiion texnologiyalardan maqsadli foydalanish hamda fanlar boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotlarning davlat taʼlim standartlariga mosligi ham har tomonlama monitoring qilinishi zarur.

Hozirgi kun zamonaviy taʼlimini yangi sifat bosqichiga koʻtarishda oʻquvchilar oʻzlashtirishini DTSga mosligini oʻta zarur vazifalardan biridir. Muayyan darajasiga erishishga yoʻnaltirilgan sifatni baholashning tashqi protseduralarini belgilashda qoʻllaniladi. Sifat monitoringi (quality monitoring) sifatning u yoki bu mezonlari va indikatorlarini bevosita baholash yoki kuzatish protseduralarini koʻzda tutadi, sifat “darajasi”ni aniqlaydi, shuningdek, moddiy sarf-harajatlarning. Umuman olganda mamlakatimizda taʼlimni boshqarish sistemasining sifat jihatidan yangi darajasi anʼanalar, boy tarixiy va maʼnaviy merosni hisobga olgan holda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham keng foydalanish lozim.

Birinchi bob boʻyicha xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qayd etamiz:

– taʼlim mauassasasida taʼlim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, yaʼni taʼlim maqsadlarini va ularga erishish yoʻllarini belgilash;

-ta'lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg'otish;

-maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o'zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi);

-natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu har qanday, tasodifiy, oldingisidan ko'ra yaxshiroq, o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta'limning oldindan rejalashtirilgan natijalariga, ya'ni muayyan o'quvchining eng yuqori imkoniyatlarga erishishi uchun tashkil qilingan va yo'naltirilgan alohida boshqaruvdir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funksiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma'noda kafolatlangan natijaga erishish demakdir.

Ta'lim muassasalarida bunday ishlar ichki nazorat bo'limlarini halol va qonuniy ishlashga, o'qituvchilarni yanada puxta ishlashga, kamchiliklarni aniqlashga, kamchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Boshqa bir tadqiqotchining fikricha, "ta'lim sifati muammolarini hal qilishda tizimli yondashuvdan foydalangan holda barcha omillarni birgalikda boshqarish zarur.

Zamonaviy oliy ta'limni boshqarish -murakkab, ko'p komponentli tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, bunda asosiy maqsadga, ya'ni o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning mehnatga va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta'minlashga erishishda ta'lim muassasasidagi barcha sub'ektlarning sa'y-harakatlarini shu maqsad yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini o'z vaqtida monitoring qilish va monitoring natijalariga binoan ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash choralarini belgilash va bu sohada samaradorlikni oshirishga qaratilgan aniq va tiniq tavsiyalarni ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishni xususan ta'lim tizimini boshqarish sifatini oshirishni kafolatlaydi. Muayyan darajasiga erishishga yo'naltirilgan sifatni baholashning tashqi protseduralarini belgilashda qo'llaniladi.

Sifat monitoringi (quality monitoring) sifatning u yoki bu mezonlari va indikatorlarini bevosita baholash yoki kuzatish protseduralarini ko'zda tutadi, sifat "darajasi"ni aniqlaydi.

II-BOB.XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1-§. Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari

Yurtimizda ta'lim tizimiga mamlakatni barqaror taraqqiy ettirishning muhim omili sifatida e'tibor qaratilayotgani qisqa fursatdayoq o'z samarasini ko'rsata boshladi. Bu xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Fan-texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari asosida ta'lim dasturlari takomillashtirib borilmoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda ta'limni boshqarish tizimida pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, faoliyatda vujudga kelayotgan muammolarni ijobiy hal etish borasida izlanishlar olib borish kabi dolzarb vazifalar yuzaga keladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bildirilgan quyidagi mulohazalar har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan mas'ul rahbarlarni yanada mas'uliyatliroq bo'lishga, hushyorlikka undadi: "Ayniqsa, zamonning yurishi, o'zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o'zgarishi kerak. Biz XXI asr - intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi lozim"²⁹. Darhaqiqat, oliy ta'lim rahbari ham ta'lim muassasasi

²⁹Afanasyev M., Myasnikova L. Jahon raqobati va iqtisodiyotning klasterlanishi // Vopr. iqtisodiyot. 2005. № 4. c. 75-81

boshqaruvini zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa undan ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib o'z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvni talab qiladi. Agar umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarida boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha zarur bilim, tajriba, pedagogik mahorat, ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmasa ta'lim jarayonini boshqarishda vujudga keladigan turli muammolarning o'z vaqtida, oqilona yechimini topishda uning oqimligi sezilib qoladi. Ularning oldini olish hamda pedagogik xodimlar faoliyatini takomillashtirish va natijada o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri rahbar boshqaruv faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishidir. Ma'lumki, XXI asr oliy ta'limi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi va ta'lim mazmuni va tashkil etilishida muayyan o'zgarishlarni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi ob'ektiv mavjud omillardan biri bu tezsuratlar bilan o'sib borayotgan axborot oqimidir.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar turlicha bo'lishi mumkin, jumladan, ta'limning yangi texnologiyalari, o'qitish usullari, o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va texnikaviy xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlash, bular esa, oliy o'quv yurtlari boshqaruv tizimidan yuqori moslashuvchanlik va harakatchanlikni talab qiladi. Respublikamizda ham ta'lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, davlat ta'lim siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlariga nisbatan joylashishni aniqlash maqsadli auditoriya (abituriyentlar, ish beruvchilar, hokimiyat va boshqalar) nazarida oliy ta'lim muassasasining jozibadorligini oshirishga imkon beradigan raqobatdosh ustunliklarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasasining joylashuvi ikki yo'nalishda-tashqi va ichki yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Tashqi ta'lim muassasaning ta'lim xizmatlari bozorida, ta'lim makonida mavqeini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ichki joylashish oliy ta'lim muassasasi ichidagi aloqa tizimi, ichki marketing va tashkiliy qo'llab-quvvatlash bilan belgilanadi. Joylashuv natijasida oliy ta'lim

muassasalari o'zlarining kuchli tomonlarini, ustuvor faoliyatlarini aniqlaydilar va ularni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadilar.

Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi—bu "tashkilot samaradorligini ta'minlaydigan barcha qonuniyatlarni, tashqi va ichki sharoitlarni, maqsad va vazifalarni har tomonlama o'rganishga asoslangan tizimli harakatlar va ularni amalda amalga oshirishning keng qamrovli, uzoq muddatli rejasi"³⁰. Yuqoridagi tahlillarga asosan shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida turli xil rivojlanish strategiyalari yoki ularning kombinatsiyalari dan foydalanish mumkin. Oliy ta'limni muassasalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ta'lim va bozor munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini hisobga olish kerak.

Zamon bilan hamnafas bo'lishga intilayotgan oliy ta'lim muassasalari o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishi va ularni izchil amalga oshirishi, shu bilan birga, fan va texnika taraqqiyoti darajasiga mos keladigan zamonaviy moddiy-texnika bazasini hamda talabalarning ilg'or yo'nalishdagi qobiliyatini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishi zarur.

Sifat menejmentining yuqoridagi yo'nalishlaridan birini tanlashda ta'lim muassasasining quyidagi sharoitlari e'tiborga olinishi lozim:

- "sifat menejmentining tashkil etilganlik darajasi;
- kadrlar ta'minoti;
- ta'lim jarayonining holati;
- o'quv jarayonining hujjatlar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- moliyaviy ta'minotning mavjudligi"³¹.

Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga ahamiyat berish zarur:

- "o'quv auditoriyalarini zamonaviy o'qitish jihozlari bilan to'liq ta'minlashga erishish;
- elektron kutubxonadagi o'rinlar sonini ko'paytirish;

³⁰ Valdaitsev S. V. Biznes va innovatsiyalarni baholash. M.: "Filin" axborot-nashriyoti, 1997. 336 b.

³¹Valenta F. Innovatsiyalarni boshqarish. M.: Progress, 1985.203 p. 10. c.

- talabalarining mustaqil ta'lim olishlari uchun uslubiy ko'rsatmalar va auditoriyadan tashqari vaqtlarini samarali o'tkazishga erishish;
- darslarning to'liq yangi pedagogik texnologiyalar va texnikaviy jihozlar asosida o'tilishini ta'minlash"³².

Ta'limga sifat menejmentini tatbiq etish natijasida quyidagi samaralarga erishish mumkin:

- “o'quv jarayonidagi boshqaruv tuzilmasi modernizatsiyalashgan ko'rinishga yaqinlashadi;
- o'quv jarayonida yuritiladigan hujjatlar soddalashadi va optimallasadi;
- yetishtirilayotgan kadrlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti takomillashadi;
- yetishtirilayotgan kadrlarning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligi ortadi;
- ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi integratsiya kuchayadi;
- ilmiy tadqiqot natijalarining samaradorligi ortadi"³³.

“Ta'lim sifatini ta'minlashga yondashuvni qayta ko'rib chiqib, ta'lim muassasalari o'z tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini ishlab chiqib, joriy qilmoqdalar, ya'ni ISO 9001 xalqaro standarti asosida sifat menejmenti tizimini yaratishni ta'minlaydilar³⁴”.

Ta'lim sohasida SMTni joriy etish quyidagi maqsadlarga ega:

- “ta'lim muassasasi ichida: talabalarining yutuqlarini oshirish;
- o'quv yurtini -boshqarish tizimini qayta tashkil etish, o'quv dasturiga yangi mutaxass isliklar va ixtisosliklarni kiritish;
- qulay o'quv sharoitlarini yaratish uchun o'quv muassasasi infratuzilmasini rivojlantirish; yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish;
- professor o'qituvchilar malakasini oshirish darajasini oshirish;

³² Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.237-b.

³³ Воронкова О.В. Трансформация системы образования в условиях глобализации // Глобальный научный потенциал. 2016. № 5 (62). С. 5-7.

³⁴ Соломахо В.Л., Серенков П.С. Нормирование качества в системе международных стандартов. Источник: Управление качеством образования: теория и практика / под ред. А.И. Жука, Н.Н. Кошель. – Минск : Зорны верасень, 2018. – С. 91

-o‘quv jarayonini optimallashtirish – resurslardan maksimal samaradorlik bilan oqilona foydalanish”³⁵.

2. “Ta’lim muassasidan tashqarida:

- o‘z profilidagi ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshirish;
- bir tomondan iste’molchi – abituriyentlar bozorini va boshqa tomondan yosh mutaxassislariga muhtoj bo‘lgan ish beruvchilar tashkilotlarini kengaytirish;
- oliy o‘quv yurti obro‘cini oshirish;
- mutaxassislarning bozor sharoitlariga doimiy e’tibor qaratish”³⁶.

Oliy ta’lim sifatini boshqarish uch darajada amalga oshiriladi:

1-strategik, 2- taktik va 3-operatsion. Strategik daraja – oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini davlat darajasida boshqarish, bu ta’limdagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni, xususan, federal davlat ta’lim standartlari va ta’limni rivojlantirish konsepsiyalarini, shuningdek, oliy ta’limni rivojlantirishning mintaqaviy maqsadli dasturlarini joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sifatini boshqarish tizimining asosiy bo‘g‘ini ta’lim muassasasi hisoblanadi. Biroq, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, uni yaratish bir vaqtning o‘zida ikkita pozitsiyani amalga oshirishni talab qiladi: “yuqoridan pastga” va “pastdan yuqoriga”. “Yuqoridan” davlat darajasida ta’lim sifati mafkurasi yaratilmoqda, qo‘llab-quvvatlash tizimi qurilmoqda, sifatning o‘zi esa “pastdan” – ta’lim muassasalari darajasida shakllantirilmoqda. Yuqoridan ta’lim sifatini boshqarish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash tizimini–me’yoriy-huquqiy bazani, o‘quvslubiy asosni, tashkiliy tuzilmalarni, kadrlar tayyorlashni, texnologiya va usullarni ishlab chiqishni, axborot bilan ta’minlashni va boshqalarni yaratish kerak. Bu sifat menejmentini har bir oliy o‘quv yurti va har bir professor-o‘qituvchining mas’uliyatiga aylantirish imkonini beradi.

³⁵ Соломахо В.Л., Серенков П.С. Нормирование качества в системе международных стандартов. Источник: Управление качеством образования: теория и практика / под ред. А.И. Жука, Н.Н. Кошель. – Минск : Зорны верасень, 2018. – С. 117

³⁶ Alikarieva A’loxon. “Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirishda xorij tajribasi”, №4 2022.

"Sifat - bu ob'ektning belgilangan va nazarda tutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarining yig'indisidir"³⁷. Sifat ko'rsatkichlariga erishish ularning kattaligi, murakkabligi va kombinatsiyasini ta'minlaydigan boshqaruvga bog'liq. Sifat nafaqat faoliyat natijasi, balki unga ichki potentsial va tashqi sharoitlar shaklida erishish imkoniyati hamda xususiyatlarni shakllantirish jarayoni sifatida qaraladi. Ta'lim, inson faoliyatining har qanday jarayoni yoki natijasi kabi, ma'lum bir sifatga ega. Konseptual jihatdan eng to'g'ri ta'rif ta'lim sifatining quyidagi ta'rifidir.

Ta'lim sifati - bu kompetentsiya va kasbiy ongning izchil va amaliy jihatdan samarali shakllanishini belgilovchi ta'lim jarayoni xususiyatlarining yig'indisidir. Bu erda xususiyatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: ta'lim maqsadiga erishish potentsialining sifati, kasbiylikni shakllantirish jarayonining sifati va ta'lim natijasi sifati. Potentsialning sifati ta'lim maqsadining sifati, sifati kabi xususiyatlarda ifodalanadi ta'lim standarti, ta'lim dasturining sifati, o'quv jarayonining moddiy-texnik bazasi sifati, professor-o'qituvchilar tarkibi, abituriyentlar sifati, axborot-metodik bazasining sifati. Kasbiylikni shakllantirish jarayonining sifati - ta'lim texnologiyasining sifati, o'quv jarayonini nazorat qilish, o'qituvchilar tarkibini ijodkorlik va samaradorlikka rag'batlantirish sifati. pedagogik ish, o'quvchilarning ta'limga munosabati sifati, o'quv jarayonining intensivligi, ta'limni boshqarish, bilimlarni taqdim etish usullari.

“Ta'lim natijasining sifati - kasbiy mahoratni bilish, individual qobiliyat va xususiyatlarni tan olish va amalga oshirish, ish bilan ta'minlash, martaba va ish haqi, o'z-o'zini tarbiyalash metodologiyasini o'zlashtirish, bilim, amaliy ko'nikmalar”³⁸. Bu xususiyatlarning har biri alohida tahlil qilish va uni o'lchash va baholash imkoniyatlarini o'rganishni, uni ta'lim jarayonini tashkil etish amaliyotida hisobga olishni talab qiladi. Kasbiy ta'lim tushunchasi kasbiy ta'lim tushunchasidan farq qiladi. Bu nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ko'p jihatlarni tavsiflovchi

³⁷ Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.32-b.

³⁸ Ahlidinov R. Sh. O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasasi ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). – Toshkent: O'zPFITI, 1997.213-b

kasbiy ongdir ijtimoiy xulq-atvor shaxsiyat - maqsad va qadriyatlardan voqelik va kelajak mezonlariga muvofiq faoliyat natijalarini bilishgacha. Ushbu qoida ta'lim sifatini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim sifati umumlashtirilgan ta'rifda va uning yakuniy taqdimotida mutaxassisning iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq, ma'lum bir davrda kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiruvchi vakolatlar va kasbiy ongning xususiyatlari to'plamidir. Ta'lim sifatini tushunish nafaqat kasbiy bilimlarning mavjudligini, balki umuman ta'limning tabiati va darajasini, tashkiliy madaniyatni, boshqaruv faoliyatiga roli va funktsional tayyorligini, muammolarni tan olish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. ijodiy izlanish ularning oqilona qarori, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlari. Ta'limning natijasi, pirovardida, kasbni anglash va ijtimoiy mas'uliyatdir. Ta'lim sifati nafaqat natija bilan tavsiflanadi ta'lim faoliyati– mutaxassis – oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining xossalari, shuningdek, ta'lim maqsadi, mazmuni va metodikasi, tashkil etilishi va texnologiyasiga bog'liq bo'lgan ushbu natijani shakllantirish omillari. Bularning barchasi o'ziga xos xususiyatlar bo'lib, ularning shakllanishiga ongli ravishda ta'sir qilish kerak, shuning uchun ularni nazorat qilish kerak.

Ta'lim har bir universitetda bo'lishi kerak bo'lgan sifat menejmenti tizimiga muhtoj. Bunday tizimni zamonaviy tizimsiz amalga oshirish mumkin emas. integratsiyalashgan tizim umumiy ta'lim sifatini ham, uning barcha tarkibiy qismlarini ham alohida baholash. Baholash qanchalik aniq qurilsa va ko'proq xususiyatlar hisobga olinsa, ta'lim sifatini boshqarish shunchalik muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. O'z navbatida, menejment uning maqsadlari va ularga erishish usullari, funktsiyalari, vakolatlari va ta'lim sifati uchun javobgarligini tavsiflovchi metodologiyasi va tashkil etilishiga bog'liq. Sifatni boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba mavjud bo'lib, u umumiy (umumiy) sifat menejmenti TQM tizimi bilan ifodalanadi. Ushbu tizimdan foydalanish mumkin, lekin faqat ta'lim jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini va Rossiya boshqaruvi shartlarini hisobga olgan holda. Sifat menejmenti tizimi rasmiy va norasmiy asosga ega bo'lishi mumkin.

Birinchi majburiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar va standartlar majmuini belgilaydi, ikkinchi - xodimlarning sifat muammolariga ijtimoiy-psixologik munosabati, ijodkorlik va tashabbus muhiti. Sifatni nafaqat talab qilish va nazorat qilish, balki motivatsiya qilish ham kerak.

Ta'lim sifatini boshqarish tizimini birdaniga joriy etib bo'lmaydi. U izchil, bosqichma-bosqich, shakllanish va rivojlanish dasturiga muvofiq shakllantiriladi. Ta'lim sifatini tushunish uchun uchta bilim darajasining mavjudligini hisobga olish juda muhimdir. Sifat menejmenti ushbu darajalardan biriga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin va bu holda sifatni baholash ushbu holatni hisobga olishi kerak. Muayyan mavzuni uning asosiy qoidalarini umumiy tushunish darajasida o'zlashtirishingiz mumkin. Har qanday mutaxassisni tayyorlashda siz umumiy tushunish darajasida bilishingiz kerak bo'lgan shunday fanlar bo'lishi mumkin. Va bu fanlar ma'lum bo'lishi va o'quv dasturida ma'lum o'rinni egallashi kerak. Ular ikkinchi darajali yoki ixtiyoriy deb hisoblanmasligi kerak. Ular o'z rolini o'ynaydi kasbiy rivojlanish mutaxassis. Ammo ularning hajmi va o'qitish usullari aynan mana shu rolni - kasbiy dunyoqarashni, boshqa fanlarni yaxshiroq o'zlashtirish uchun asosni, bilimlarning tizimlilikini hisobga olishi kerak. Ikkinchi bilim darajasi fanni chuqur egallash, bilimlarni bilim va amaliyotning turli sohalariga aylantira olishdir. Ta'lim sifatini o'zgartirish tendentsiyasi aynan shunday bo'lishi kerak, bilim darajasining bilim sifatiga va umuman, ta'lim sifatiga bog'liqligi mana shunday namoyon bo'lishi kerak. Ta'lim sifati bugungi kun talablarini aks ettiradi, lekin kelajakka qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ta'limning zamonaviy xususiyatlari va ehtiyojlari ham, ta'lim kelajagi ham eng aniq namoyon bo'ladigan ta'limni rivojlantirish tendentsiyalarini hisobga olgan holda sifatni ta'minlash kerak. Ta'lim sifatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning tarkibi va tizimi. Ta'lim sifatining asosiy parametrlari sifatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning yig'indisini, shuningdek, ushbu omillar ta'sirining o'lchovi va xususiyatlarini, ularning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Ta'lim sifatining asosiy omillari ta'lim maqsadi va salohiyatidir.

Birinchi, nafaqat bugungi ta'lim ehtiyojlarini, balki ertangi kunni ham qondiradigan qanday ta'limni ideal deb hisoblash mumkinligi haqidagi jamoatchilik fikrini aks ettiradi. Maqsad rivojlanish tendentsiyasini aks ettiradi ta'lim ehtiyojlari va butun ta'lim tizimiga kirib boradi, nafaqat davlat siyosatida, balki ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisining xatti-harakatlarida ham namoyon bo'ladi.

Ikkinchi omil - ta'lim salohiyati - resurslar va ob'ektiv sharoitlar nuqtai nazaridan maqsadga erishish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Bu omillar ma'lum bir ta'lim tashkiloti uchun tashqi va ichki omillardir. Maqsad ham, potentsial ham umumiy ta'lim uchun ham, har bir tashkilot uchun ham alohida mavjud. Lekin ta'lim sifatini shakllantirishning boshqa omillarini ikki guruhga bo'lish mumkin - tashqi va ichki.

Birinчисiga quyidagilar kiradi: ta'limni davlat boshqaruvi (Ta'lim va fan vazirligi faoliyati), ta'limni tashkiliy-huquqiy ta'minlash ("Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Davlat ta'lim standartlari va boshqalar), ta'limni moliyalashtirish tizimi, ta'lim ehtiyojlarining namoyon bo'lishi va ta'lim. ta'lim sifati haqidagi jamoatchilik fikri.

Ikkinchi guruh omillari-ichki-o'qituvchilar va talabalar tarkibi, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, axborot-metodik ta'minoti, ta'lim texnologiyasi va o'quv ishlari. Sifatni boshqarishning ixtisoslashtirilgan tizimi (agar mavjud bo'lsa) va ta'lim dasturi alohida rol o'ynaydi. Oxir oqibat, bu omillar ta'lim sifatini ham tizim sifatida, ham uni olish va ta'minlash jarayoni sifatida, shuningdek, ta'lim natijasi sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, barcha omillar o'z xususiyatlariga ega, ularning har birining sifati haqida alohida aytish mumkin.

Ta'lim sifatini boshqarish nafaqat uning ma'lum darajasiga erishish, balki uning o'zgarishining ijobiy dinamikasini ta'minlashdir. Ta'lim sifatining barcha zamonaviy ishlanmalarida asosiy e'tibor ta'limning ma'lum darajasiga erishishga qaratilgan. Ammo ijtimoiy rivojlanish jarayonida ta'limning ehtiyojlari va shartlari o'zgaradi va ulardan keyin sifatga qo'yiladigan talablar ham, uni baholash mezonlari ham o'zgarishi kerak. Ta'lim sifati dinamikasi har xil bo'lishi mumkin. U

barqaror yoki beqaror bo'lgan barqarorlik yoki keskin yoki bosqichma-bosqich pasayish yoki sifatning o'sishi yoki turli xil tebranishlari bilan tavsiflanishi mumkin. Bu tendentsiyalar o'zgarish yo'nalishi, sur'ati va ritmlari bilan farqlanadi. Ta'lim sifatini oshirish kerak. Ammo buni tushunish etarli emas. Qaysi tendentsiyalarga ko'ra ta'lim sifatini oshirish mumkin va maqsadga muvofiq, undan qochish kerak: Ta'lim sifatini oshirishning bosqichma-bosqich tebranish tendentsiyasi. U bir-biridan keyingi ikkita logistik egri chiziqdan iborat. Ushbu tendentsiyada sifatli sakrash deb atash mumkin bo'lgan bosqichda burilish nuqtasi mavjud. Bu tashqi muhit va sifat menejmentidagi sezilarli o'zgarishlar bilan belgilanadi: yangi tizim va boshqaruv mexanizmini joriy etish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishish, ta'limni muvaffaqiyatli isloh qilish, barcha sifatlardan foydalanishda tanqidiy massani to'plash. yaxshilash omillari. Ammo tebranish turi boshqacha bo'lishi mumkin. Sifatning sezilarli o'sishi bosqichi uning pasayishi va keyin biroz barqarorlashuv bosqichi bilan almashtiriladi. Ushbu tendentsiya ta'limni isloh qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklarni yoki tashqi muhitning salbiy o'zgarishini (etarlicha moliyalashtirilmaganligi, ijtimoiy rivojlanishda ta'limning rolini etarli darajada baholamaslik va boshqalarni) tavsiflaydi. Sifatning pasayishi sezilarli yoki ahamiyatsiz, barqaror yoki epizodik bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, ta'limning zamonaviy islohoti ana shu tendentsiya bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ta'lim sifatining doimiy ravishda pasayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu ta'lim tizimidagi halokatli o'zgarishlar tendentsiyasidir. Undan qochish kerak. U, qoida tariqasida, uni boshqarish va isloh qilishdagi qo'pol xatolarni tavsiflaydi. "Ta'lim sifati uzoq vaqt davomida barqaror darajada bo'lishi mumkin. Bu daraja saqlanib qoladi, lekin oshirilmaydi. Bunday holda, ta'lim tizimi yaxshi ishlaydi, lekin umuman rivojlanmaydi, chunki rivojlanish doimo yangi sifatni egallashdir"³⁹. Ammo ta'lim sifatiga ijtimoiy ehtiyojlar ortib borayotganligi sababli, boshqacha bo'lishi mumkin emas, bu tendentsiya ta'lim sifatini pasaytirish tendentsiyasiga aylanib bormoqda. Bunday

³⁹Bezudny FF, Smirnova GA, Nechaeva O.D Innovatsiya tushunchasining mohiyati va uning tasnifi // Innovatsiyalar. 2003. № 2-3. b. 10-18.

o'sish sur'atlarining o'zgarishi bilan ta'lim sifatining izchil va barqaror o'sishi tendentsiyasi mavjud. Ushbu tendentsiya ancha uzoq davrning logistik egri chizig'i bilan tavsiflanadi. Ta'lim sifatini boshqarishda menejment qaysi tendentsiyaga yo'naltirilganligiga doimo to'liq ishonch bo'lishi kerak, ta'lim sifati dinamikasi ustidan nazorat bo'lishi kerak. Ta'lim sifatining ijobiy dinamikasini ta'minlash uchun dinamikani qanday omillar belgilab berishini, ta'limda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qanday omillar ta'sir qilishini bilish kerak.

Dyoming sikli muassasadagi har qanday bajariladigan ishning poydevori hisoblanadi. Bu nazorat sikli har bir xodim yoki jamoa ishida yutuqlarning asosi bo‘la oladi. PDCA siklini amalda qo‘llash uchun muassasa xodimlari uni o‘zlarining darajalarida o‘rganishlari kerak bo‘ladi”⁵⁰. Shunday ekan, sifatni boshqarish jarayonlari tizimligini ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida Dyoming sikli va sifat halqasini birgalikda sifatni boshqarish tadbirlarida qo‘llash mumkin bo‘ladi. Bu yetishib chiqayotgan kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlashda o‘z samarasini beradi. Bu ikki usul asosida jadval tuzib, uni matritsa ko‘rinishiga keltirish mumkin. Ushbu matritsa mutaxassislikning alohida turi uchun sifat boshqaruvining majmuaviy ko‘rinishini tashkil etadi.

Mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim tizimida ta’lim sifatini xorijiy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirishni jadallashtirish maqsadida quyidagi tashkiliy pedagogik vositalar tavsiya etiladi:

-franchayzing - franchayzing shartnomasi bo‘yicha xorijiy OTM mahalliy ta’lim muassasasiga o‘z ta’lim dasturlaridan foydalanish va o‘zaro kelishilgan;

-shartlar asosida uning diplomlarini berishga ruxsat beradi;

-qo‘shma dasturlar-bunday shartnomalar turli mamlakatlar OTMlari o‘rtasida qo‘shma o‘quv dasturlarini taklif qilish uchun tuziladi. Talabalar o‘xshash kurslarni o‘zlashtiradilar, bir xil darsliklardan o‘qiydilar va bir xil imtihonlarni topshiradilar, o‘qituvchilar esa odatda mahalliy o‘qituvchilardir; dasturlarni o‘zaro tan olish - oldingi kelishuvdan farqli o‘laroq, hamkorlik qiluvchi OTMlar qo‘shma dasturlarni ishlab chiqmaydi. Talabalar boshqa davlatdagi oliy ta’lim dasturlariga o‘qishga kiradi va ular olgan barcha baholar o‘z yurtida haqiqiy deb tan olinadi. Yoki talabalar ushbu oliy ta’lim muassasasida keyingi ta’lim bosqichi dasturlarini

⁴⁹ Ne‘matjonova Y.O‘. “Oliy ta’lim professor o‘qituvchilarining masofaviy ta’lim muhitidagi pedagogik kompetensiyalari tizimini rivojlantirish” maxsus kursidan electron o‘quv qo‘llanma dasturi. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi. DGU 12136. //13.08.2021y.48-b

⁵⁰ Гаффорова Ye.Б. Создание системы менеджмента качества в вузе // Методы менеджмента качества. – 2012. –№12 (Gafforova E.B. Creation of a quality management system at a university // Methods of quality management. -2019. - No. 12.).

tamomlash uchun bir bosqichda boshqa davlat ta'lim muassasasi tomonidan tan olingan baholarni olgan holda mahalliy institutda o'qishlari mumkin.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tajribalar (Shvetsiya tajribasi)ga asoslanib, sifati juda yuqori bo'lgan oliy ta'lim muassasasi grant berish, baholashda pastroq sifat ko'rsatkichini namoyon etgan muassasa ikkinchi monitoringdan o'tishini belgilashi, qayta baholash ushbu kamchiliklar hali ham davom etayotganligini ko'rsatgan muassasalarga oliy ma'lumot malakani berish huquqini olish to'g'risida qaror qabul qilishi kabi tajribalarni amaliyoga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ierarxik boshqarish usullari: o'quv jarayonini hujjatlashtirish, o'qitish va kasb-hunar ta'limi mazmuni hamda texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirish, pedagogik faoliyat sifatini baholashni umumlashtirish, talabalar bilimi natijalarini nazorat qilish. Ta'lim sifatini boshqarishning tashkiliy shakllari loyihalovchi guruhlar, o'quv jarayonini loyihalashtirishning bosqichmabosqich texnologiyasi, talabalarni mustaqil attestatsiyadan o'tkazish, o'quv jarayonining sifatini tekshirishda talabalarning ishtirokida ko'rinadi. Boshqaruvning optimal vositalari quyidagilardan: pedagoglar va talabalarning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, erishilgan natijalar bilan pedagoglar va talabalarning ma'naviy hamda moddiy ish haqi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, ob'ektiv muvofiqlikni o'rnatadigan reyting ko'rsatkichlaridan tashkil topadi. Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishida "Qiyosiy pedagogika" o'quv modulining yuqorida belgilangan mavzular doirasida talabalarga ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvga taaluqli tushunchalarni singdirish maqsadida "Buni bilasizmi?" metodi; "Qanday?" sifatli diagrammasi, "SWOT-tahlili", "Tushunchalar tahlili", "Konseptual jadval" kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari sinab ko'rildi. Quyida ko'rsatilgan metodlarning tahlillari xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatini rivojlantirishni hamda kasbiy motivatsiyasini oshirishga imkon berishini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ta'lim yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etishning eng zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish, talabalarga

yoʻnaltirilgan taʼlimni asosiy paradigmasi sifatida qabul qilish taʼlim sifatini taʼminlashning ustuvor yoʻnalishi boʻlishi lozim.

Ikkinchi bob boʻyicha xulosa

Tadqiqotda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish kabi umumiy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan hamda oliy oʻquv yurtlariga nisbatan tashkilotlarning rivojlanish strategiyalarining mavjud tasniflarini qoʻllash imkoniyatlarini baholangan.

Taʼlim sifatini sifatli boshqaruv tizimini takomillashtirishda quyidagi usullardan foydalanildi: hujjatlashtirish metodikasi, professional taʼlim-tarbiyaning mazmuni va texnologiyalarini, doimiy ravishda takomillashtirib borish, sifatni nazorat qilish, baholarni umumlashtirish metodi–talabalar, hamkasblar, kafedra mudiri tomonidan berilgan pedagog ishi tavsiflarini integratsiyalashni nazarda tutadi.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishida “Qiyosiy pedagogika” oʻquv modulining yuqorida belgilangan mavzular doirasida talabalarga taʼlim sifatiga zamonaviy yondashuvga taaluqli tushunchalarni singdirish maqsadida “Buni bilasizmi?” metodi; “Qanday?” sifatli diagrammasi, “SWOT-tahlili”, “Tushunchalar tahlili”, “Konseptual jadval” kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari sinab koʻrildi. Quyida koʻrsatilgan metodlarning tahlillari xorijiy tajribalar asosida oliy taʼlim muassasalarining oʻquv faoliyatini rivojlantirishni hamda kasbiy motivatsiyasini oshirishga imkon berishini koʻrsatmoqda.

III-BOB.XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA PEDAGOGIK MONITORING ORQALI TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI

3.1-§.Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarishga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni

Tadqiqotimiz jarayonida tadqiq etilgan Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarish uzoq muddatli islohotlarga qaratilgan loyihalar va chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi. Shunday bo`lsa-da, tadqiqot natijalarini amaliyotda qo`llash imkoniyatini sohaga oid o`quv predmetlari va modullarida sinab ko`rish imkoniyati paydo bo`ldi.

Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta`lim sifatini boshqarish samaradorligini va uni amalga oshirishning belgilangan pedagogik shartlari va tashkiliy asoslari aniqlash yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari 2022-2024-yillarda Termizmiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika institutlarida olib borildi. Biz kuzatishlar olib borgan umumta`lim massasalarida rahbar xodimlarning zamonaviy yondashuvlar asosida innovatsion boshqaruv faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning faoliyatiga salbiy tasir etuvchi omillarni aniqlashga alohida e`tibor qaratdik.

Tadqiqotimiz vazifalariga muvofiq, nazariy-metodik tahlil oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarishning asosiy qoidalarini shakllantirishga imkon berdi; tadqiqot natijalarini asoslash va taqdim etish jarayonida tahlil, sintez va umumlashtirish ishlatilgan; empirik: muammo va tadqiqot mavzusini aniqlash uchun oliy ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish, OTM ichidagi sifat menejmenti tizimlarini tashkil etishning samarali tajribasi hamda ommaviy amaliyotini o'rganib, umumlashtirish; shuningdek, anketa so'rovnomalari va test o'tkazish va ekspert baholash metodlari tadqiqot natijalarini tasdiqlashga imkon berdi.

Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish yuzasidan oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati tizimida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlarining darajasini aniqlash maqsadida respondentlar tanlab olindi va suhbat o'tkazildi.

Tajriba-sinov ishlarida jalb etilgan oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va rahbarlarining xorijiy davlat universitetlarida ta'limi sifatiga belgilashga hisobga olinadigan ko'rsatkichlarga munosabatini aniqlash va mamlakatimiz ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlarini modernizatsiyani talab qiladigan jihatlarini belgilash uchun so'rovnoma o'tkazdik.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

- 1. Asoslovchi tajriba bosqich;**
- 2. Shakllantiruvchi tajriba bosqich;**
- 3. Takidlovchi tajriba bosqich.**

Birinchi bosqichda tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlarni tanlash va tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv materiallari, boshqaruv va uning rivojlanish jarayoni, ta'lim sifati mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlari, pedagogik eksperimentning aniqlash va nazorat qilish bosqichlari bo'yicha pedagogik diagnostika mezonlari va baholash tuzilmasini ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda amaliy umum tajribalar asosida tajribalarni umumlashtirish, adabiyotlarni o'rganish, pedagogik tadqiqotlarda g'oyalar, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, dissertatsiyaning metodologik tuzilmasini belgilash,

pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishga nazariy tahlil qilindi hamda pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni oshirish modelini ishlab chiqish amalga oshirildi. Shuningdek, muammolarni to'plash va tahlil qilish, pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish jarayonini oshirish jarayonining shakllarini aniqlash, pedagogik tajriba-sinov o'tkazish ishlari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich shakllantiruvchi pedagogik tajriba-sinovni o'z ichiga olib, unda ishlab chiqilgan xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish sohasiga doir metodik qo'llanmalardan ta'lim jarayonida foydalanish orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining tashkiliy-metodik ta'minoti amalga oshirildi. Nazorat bosqichida tajriba ishlari natijalari baholandi va sharhlandi, ta'lim jarayoni mavzulari bo'yicha tavsiya va xulosalar shakllantirildi va tizimlashtirildi.

Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni aniqlash darajalari:

1. Yuqori daraja– pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish muammoni aniqlaydi va shakllantiradi, o'z faoliyatini o'zi tashkillashtira oladi. Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni imkoniyatlari yuqori darajada rivojlangan.

2. O'rta daraja–xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni mavjud namuna va to'plangan tajribaga asoslanib topshiriq bo'yicha o'z boshqaruv faoliyatini olib boradi.

3. Past daraja–xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni faoliyatini amalga oshirish holatida emas. Oliy ta'lim rahbarlarining boshqarish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni aniqlash mezonlari:

1. Motvatsion – boshqa sub'ektlar bilan kasbiy vazifalarni birgalikda hal qilishga qiziqish.

2. Kognitiv – umumta'lim qonunchiligi sohasidagi bilimlar.

3. Refleksiv – muloqotda faollik va o‘z-o‘zini tartibga solish, faol tinglash, tolerantlik.

4. Faoliyatli – boshqaruvning turli vositalari va kanallaridan foydalanish qobiliyati va tayyorligi.

Ta’kidlaganimizdek, tadqiqot natijalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini sohaga oid o‘quv predmetlari va modullarida sinab ko‘rildi. “Qiyosiy pedagogika” o‘quv modulini o‘qitish orqali oliy ta’limda sifatni ta’minlash va nazorat qilish bo‘yicha xorijda, shu jumladan, Yevropadagi ilg‘or universitetlarda qo‘llaniladigan mexanizmlar, ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar, oliy ta’lim sifatini baholashning asosiy tamoyillari masalalari bo‘yicha talabalarga nazariy bilim beriladi. Shuningdek, xalqaro aloqalarni o‘rnatish va kengaytirish, xalqaro loyihalarni rejalashtirish haqidagi ma’lumotlarni tanishtirishga hamda mamalakatimizda amalga oshirilgan eng samarali xalqaro loyihalar natijalarini xavola etishga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur modulning takomillashtirilgan dasturi taklif etilib, doirasida talabalarning Yevropa mamlakatlarimizda ta’lim sifatini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston ta’lim tizimi o‘xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari, ularni tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatdan takomillashtirishga oid o‘z qarashlarini shakllantirish maqsadida darslarda qiyosiy tahlil, ilmiy-tadqiqot, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan foydalanilish imkoniyatlari o‘rganildi.

“Ta’lim sifatini boshqarishda xalqaro tajribalar: Yevropa misolida”, “Oliy ta’lim sifatini baholashning xalqaro metodlari: Ichki va tashqi sifat nazorati” va “Xalqaro aloqa o‘rnatish va kengaytirish. Xalqaro loyihalarni rejalashtirish” kabi mavzular doirasida talabalar oliy ta’limda sifat menejmenti asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar. Dissertatsiya doirasida bajarilgan ilmiy tahlil natijalari va xulosalari ushbu modul mazmunini yanada boyitishga xizmat qildi. Modul bo‘yicha mavjud mavzular va dissertatsiya mazmunidan kiritilgan asosiy tushunchalarda. respondentlarning aksariyatida tasavvurlar mavjud. Ba’zi respondentlar borligi tufayli sifatni oshirish metodlari, sifat menejmenti, ta’lim sifati, marketing, kredit-

model tizimi kabi tushunchalardan xabardor ekanliklari ayon bo'lsa-da, ularning ta'lim tizimida qo'llash haqidagi tasavvurlari yetarli emas.

Talabalarning katta qismi "institutsional muhit", "talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi", "talaba markazlilik", ta'lim sifatining Yevropa va AQSh o'lchovlari, o'zaro moslik (compatibility) va o'xshashlikni (comparability), akademik madaniyat, halollik, o'z-o'zini baholash kabi tushunchalarga bo'yicha tushunchaga ega emas.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishida "Qiyosiy pedagogika" o'quv modulining yuqorida belgilangan mavzular doirasida talabalarga ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvga taaluqli tushunchalarni singdirish maqsadida "Buni bilasizmi?" metodi; "Qanday?" ierarxik diagrammasi, "SWOT-tahlili", "Tushunchalar tahlili", "Konseptual jadval" kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari sinab ko'rildi. Quyida ko'rsatilgan metodlarning tahlillari bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishni hamda kasbiy motivatsiyasini oshirishga imkon berishini ko'rsatmoqda.

Nihoyat qo'lga kiritilgan natijalardan ma'lum bo'ldiki, Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishning takomillashtirish mezonlari majmui haqida to'g'ri bilimga ega bo'lganlar, bu bilimlar ularning bergan javoblarida, qisqa fursatdagi pedagogik amaliyotida namoyon bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlari mazmuniga ko'ra, tajriba va nazorat guruhleri o'rtasidagi farq birinchi guruhlarda "Qiyosiy pedagogika" moduli bo'yicha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samardorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ikkinchi guruhda esa, standart dastur va an'anaviy ta'lim metodlariga asoslanganligi bilan ifodalandi.

Respondentlardan yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha pedagogika ta'lim yo'nalishidagi oliygohlari tomonidan taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish muhimligi haqida o'z fikrlarini bildirishlari so'ralgan.

3.1-§.Xorijiy tajribalar asosida pedagogik monitoring orqali ta'lim sifatini boshqarishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish rivojlanganlik darajalari belgilangan mezon va darajalar asosida aniqlandi. Tajribasinov ishlari tahlili dastlab har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha alohida o'rganildi. So'ngra barcha natijalar umumlashtirib matematik-statistik tahlil qilindi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarimizning aniqlovchi bosqichi uchun o'xshash ko'rsatkichni aniqlash uning qiymati 0.5 ga teng ekanligini ko'rsatdi. Bu esa tajribaning aniqlovchi bosqichida nazorat va tajriba guruhlariga kiritilgan talabalarining o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblar natijalari xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirishni shakllantirishda muallifning xolis munosabati haqida xulosa qilish imkonini beradi va tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchliligini kafolatlaydi.


Nazorat bosqichida (ishlab chiqarishda) xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirishda nazorat va tajriba guruhlarida faol muloqot va faol tinglash, xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish imkoniyatlari shakllantirildi, tajriba guruhida boshqaruv imkoniyatlarini rivojlantirishda o'sish darajasini ko'rsatdi. Mezonlar bo'yicha baholash shuni ko'rsatadiki, xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirishga nisbatan eng katta o'zgarish kuzatilgan (3.2.1-jadval).

Agar dastlabki bosqichda tajriba guruh ishtirokchilarining faqat 3% umumiy pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish yuqori darajada tavsiflangan bo'lsa, pedagogik tajriba-sinov amalga oshirilgandan so'ng tajriba guruhidagi rahbarlarning 49% da yuqori daraja aniqlangan. Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish yuqori bo'lgan tajriba guruhi ishtirokchilarining ulushi 11% ga oshdi. Shu bilan birga nazorat guruhidagi takroriy boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari baholashda muhim o'zgarishlar aniqlanmadi.

Tajriba guruhida (TG) - 221 nafar va nazorat guruhida (NG) - 223 nafar talaba qatnashdi (3.2.1-jadval, 3.2.1-rasm).

3.2.1-jadval.

Termiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika insitutida olib



bo
ril
ga
n
pe
da
go
gik
taj
rib
a-

sinov ishlari natijalari

Xorij tajribalarini o'zlashtirish darajalari	Tajriba guruhlarida				Nazorat guruhlarida			
	Tajriba boshida 221 nafar talaba (%)		Tajriba oxirida 221 nafar talaba (%)		Tajriba boshida 223 nafar talaba (%)		Tajriba oxirida 223 nafar talaba (%)	
Yuqori	52	22,7	79	35,7	48	21,1	52	23,3
O'rta	92	40,2	102	46,2	86	37,7	89	39,9
Past	85	37,1	40	18,1	94	41,2	82	36,8,3

3.2.1-rasm.

Termiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika insitutida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari diagrammasi

3.2.1-rasm.



Termiz davlat universiteti va Termiz davlat pedagogika insitutida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari diagrammasi

Tajriba-sinov guruhida qatnashgan talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalari tajriba boshida 22,7 %, tajriba oxirida 35,7% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja esa 6% o'sdi, past daraja esa 19% kamaydi.

Nazorat guruhida qatnashgan talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalari tajriba boshida 21,1 %, tajriba oxirida 23,3% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja esa 2,2% o'sdi, past daraja esa 4.4% kamaydi.

Tajriba-sinov ish jarayonida olingan natijalar talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish modelining ishlashi uchun ushbu ishning birinchi bobida nazariy jihatdan asoslanganligini isbotladi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval.

Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	Tajribasinov guruhi m=221	Nazorat guruhi n=223
1.	Statistik tahlil	62%	73%
2.	O'rtacha kvadratik xatolik	0.71	0.76
3.	Styudent tanlamali mezoni ($T_{x.u}$)	5.99 (5.99 > 1.84)	
4.	Ko'rsatkichlar xulosasi	N_0 gipoteza rad qilinib, N_1 gepoteza qabul qilinadi	

3.2.2-jadval. Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalarining samaradorligi 11% yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

Uchunchi bob bo'yicha xulosa

Tadqiqotimizning shakllantiruvchi pedagogik tajriba-sinovni o'z ichiga olib, unda ishlab chiqilgan xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish sohasiga doir metodik qo'llanmalardan ta'lim jarayonida foydalanish orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining tashkiliy-metodik ta'minoti amalga oshirildi. Nazorat bosqichida tajriba ishlari natijalari baholandi va sharhlendi, ta'lim jarayoni mavzulari bo'yicha tavsiya va xulosalar shakllantirildi va tizimlashtirildi.

Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni aniqlash yuqori, o'rta va past darajalarda aniqlandi. Pedagogik monitoring orqali xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni aniqlash motivatsion kognitiv refleksiv faoliyatli mezonlari asosida olib borildi.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishida "Qiyosiy pedagogika" o'quv modulining yuqorida belgilangan mavzular doirasida talabalarga ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvga taaluqli tushunchalarni singdirish maqsadida "Buni bilasizmi?" metodi; "Qanday?" ierarxik diagrammasi, "SWOT-tahlili", "Tushunchalar tahlili", "Konseptual jadval" kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari sinab ko'riladi. Quyida ko'rsatilgan metodlarning tahlillari bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishni hamda kasbiy motivatsiyasini oshirishga imkon berishini ko'rsatdi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida "Qiyosiy pedagogika" fanini o'qitishda ta'lim sifatining zamonaviy yondashuvga taaluqli tushunchalarni singdirish maqsadida "Buni bilasizmi?" metodi, "Qanday?" ierarxik diagrammasi, "SWOT - tahlili", "Tushunchalar tahlili", "Konseptual jadval" kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari yuqori baholandi. Tajriba-sinov guruhida qatnashgan

talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalari tajriba boshida 22,7 %, tajriba oxirida 35,7% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja esa 6% o'sdi, past daraja esa 19% kamaydi. Nazorat guruhida qatnashgan talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalari tajriba boshida 21,1 %, tajriba oxirida 23,3% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja esa 2,2% o'sdi, past daraja esa 4.4% kamaydi. Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarning xorij tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishni o'zlashtirish darajalarining samaradorligi 11% yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

“Ta’lim sifati” va “oliy ta’lim sifati” “sifatni boshqarish” tushunchalari ko‘p komponentli va tizimli kategoriya bo‘lib, sotsiologik va pedagogik fanlarda ilmiy tadqiqot predmeti sifatida u talabalarning aniq belgilangan malaka darajasi, moddiy va laboratoriya bazasining holati, ilmiy va uslubiy adabiyotlarning sifati va miqdori, zamonaviy o‘quv dasturlari hamda talabalarning kasbiy amaliyoti sifatini aks ettiradi. Ta’lim sifati quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: mulk, baholash hodisasining tuzilishini tavsivlovchi belgi yoki belgilar majmui, mukammallik darajasi.

“Oliy ta’lim sifati” va “ta’lim sifatni boshqarish” ilmiy-pedagogik xodimlarning kasbiy faoliyati ko‘rsatkichi, ta’lim dasturlari xususiyatlari, infratuzilmaning ichki va tashqi sifati, ta’lim jarayonini baholash madaniyati sifatida talqin etiladi.

1. Xorijiy tajriba asosida oliy ta’lim sifatini boshqarish (baholash, nazorat qilish, monitoring qilish)ni ta’minlashning o‘ziga xos xususiyat(anglo-sakson, fransuz, gumboldt, skandinaviya)lari, tavsiflanadi va aniqlangan ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim tizimiga joriy etish imkoniyatlari belgilandi.

2. Xorijiy tajribalar asosida milliy oliy pedagogik ta’lim sifatini boshqarishni rivojlantirish natijadorlikning asosiy ko‘rsatkichi sifatida institutsional muhit va talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tildi.

3. Oliy ta’lim sifatini boshqarishni ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajribalarning konstruktiv g‘oyalarini mahalliy oliy o‘quv yurtlarida ijodiy qo‘llash istiqbollari belgilandi.

4. Oliy ta'lim sifatini boshqarishni baholashda yetakchi omillar har bir oliy ta'lim muassasasining ixtiyoriyligi va motivatsion qiziqishi bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan. Oliy ta'lim sifatini ta'minlash boshqarish tizimining to'liq faoliyat ko'rsatishining majburiy sharti ta'lim oluvchilarni oliygoh tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarini baholashga jalb etish ekanligi isbotlandi.

5. Ish beruvchilarni oliy ta'lim sifatini boshqarishni baholash jarayoniga jalb qilishni kuchaytirish, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi borasida oliygoh va ish beruvchilar jamoasi o'rtasida ma'lumot almashuvi (diagnostik, benchmarking va korreksion sifat mezonlari)ni yo'lga qo'yish ta'lim sifatini ta'minlashdagi ustuvorligi aniqlandi.

6. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida "Qiyosiy pedagogika" fanini o'qitishda ta'lim sifatining zamonaviy yondashuvga taalluqli tushunchalarni singdirish maqsadida □Buni bilasizmi?□ metodi, □Qanday?□ iyerarxik diagrammasi, □SWOT - tahlili□, □Tushunchalar tahlili□, □Konseptual jadval□ kabi usllarning uslubiy imkoniyatlari yuqori baholandi.

TAVSIYALAR

1. Xalqaro reyting tashkilotlari standartlari hamda milliy reytingni aniqlash bo'yicha xalqaro tajriba asosida milliy reyting tizimi takomillashtirilish, ta'lim tashkilotlarining ta'limni boshqarish sohalari kesimida reytingi (subject ranking) joriy etish hamda ularning faoliyati natijadorligini qiyoslash tartibini joriy etish.

2. Oliy ta'lim sifatini boshqarishni baholash mexanizmlari yordamida ta'lim sifati profillarini aniqlash, innovatsion tajriba zonalarini sifatida alohida qo'llabquvvatlashga loyiq ta'lim sifatining eng ilg'or raqobatbardosh markazlarini aniqlash integralini yaratish lozim.

3. Xorijiy tajribalar asosida oliy pedagogik ta'lim sifatini boshqarishni rivojlantirish natijadorlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida institutsional muhit va talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etishda idoralararo hamkorlik asosida chora-tadbirlar amalga oshirish lozim.

4. Talabalarga mehnat bozorida yetakchi o'rinni egallash imkoniyatini maksimal darajada ta'minlash, ish beruvchilar oldida ularning "qiymatini" oshirish

va shu orqali ikkinchisining ehtiyojlarini qondirish g‘oyasi hisoblangan talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini joriy etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”da O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. –Toshkent, 2022.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori.

5.“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi 515-son qarori.

5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi faoliyatimizga berilgan eng oliy qadriyatdir. 2-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.508.

7. Anynin VM, Dagaev AA Innovatsion boshqaruv. M.: Delo, 2003.527 p.

8.Afanasyev M.,Myasnikova L.Jahon raqobati va iqtisodiyotning klasterlanishi//Vopr. iqtisodiyot. 2005. № 4. S. 75-81

9. Balabanov I.T.Innovatsion menejment:darslik. nafaqa. SPb. : Piter,

2000.207 p.

10. Bogolyubov VS, Orlovskaya V.P. Turizm iqtisodiyoti: darslik. M.: Akademiya, 2005. 192 b.

12. Boush GD Business klasterlari: kategorik tizim taqdimoti: monografiya. Omsk: OmDU nashriyoti, 2011. 348 b.

13. Burov V. Yu., Kruchinina NA Trans-Baykal o'lkasidagi kichik biznes. Irkutsk, 2011. 350 p.

14. Valdaitsev S. V. Biznes va innovatsiyalarni baholash. M.: "Filin" axborot-nashriyoti, 1997. 336 b.

15. Valenta F. Innovatsiyalarni boshqarish. M.: Progress, 1985. 203 p. 10. P. Vodachek L., Vodachkova O. Korxonada innovatsiyalarni boshqarish strategiyasi: qisqacha. per. slovak tilidan. / muallif. Muqaddima V. S. Rapoport. M Iqtisodiyot, 2004. 365 b.

16. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim boshqaruv. – T.: Voris, 2006. 216-b.

17. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001. 247-b.

18. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 2000. 312-b.

19. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник – М.: Экономит, 2006. 158-с.

20. Инновационный менеджмент: Учебник / Под. ред. Горфинкеля В. Я – М.: Вузовский учебник, 2006. 257-с.

21. Егоршин А. П. Управление персоналом: Учеб. для вузов 3-е изд. – Нижний Новгород.: НИМБ, 2001. 341-с

22. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002. 312-b.

23. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: 2007. 19-b

24. Sadovnichiy V., Kruzhalin V., Artyushina I., Shutilin V. Ta'lim sifatini qanday hisoblash mumkin // Ekspert. - 2008. 16-b.
25. Androsova L.A. Boshqaruv sotsiologiyasi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. - Penza: PGU nashriyoti, 2002.174-b.
26. Yo'ldoshev N.Q., Umarjonov A.M. Iqtisodiyot va menejment. - T.: TDIU, 2005 243-b.
27. Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 156- b
28. Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 185 b
29. Yo'ldoshev N.Q., Qozoqov O.S. Menejment. Darslik. - T.: Fan, 2004.
30. Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 185 b
31. Jalolov J.J. va boshqalar. Maktab tashqi iqtisodiy faoliyati va marketing. - T.: Bilim, 2005.
32. Umarjonov A. Savdo menejmenti nazariyasi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. 74 bet.
33. Полукадров В.Л. Основы менеджмента: учебное пособие./ В.Л Полукадров 3- е изд., перераб. и доп.- М.: КНОРУС, 2009.- 240 с.
34. Баринов В.А., Харченко В.Л. Стратегический менеджмент: Учеб. пособие.- М.: ИНФРА-М, 2008.- 285 с.
35. Маркова В.Д. Маркетинг, менеджмент: учеб.пос. – М.: «Омега - Л», 2009. – 204 с.
36. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov SH.R., Zokirova N.Q., Irmatova A.B. Personalni boshqarish.Darslik.-T.: "Iqtisodiyot", 2011- 580 b.
37. Abdurahmonov Q.H., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: "O'qituvchi", 2008 – 655 b.

38. Madiyarov G.A. Iste'mol tovarlari bozorida marketing tizimini rivojlanishi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. -T.: TDIU, 2008. 86-b

39. Jalolov A. K. Institutsional o'zgarishlar davrida kasbiy o'zgaruvchanlik menejmenti. Nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2005. 64-b.

40. Axborotlashgan jamiyatning shakllanib borish tendentsiyalari va istiqbollari-mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanining ma'ruzalar to'plami.- T.: TDIU, 2007. 51-52 b

41. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat va inson omilining rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislari to'plami 16 sentyabr 2007 yil, T.: 2007. 489-b

42. Azlarova M. Milliy iste'mol bozorini rivojlantirishda marketing faoliyatining o'rni.//O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash.- Yosh olimlar va magistrantlarning ilmiy anjumani. 2004 yil 6 may.-T.: TDIU 356-b

43. Gershunskiy B.S. Obrazovatelno-pedagogicheskaya prognostika. Teoriya, metodologiya, praktika. – M.: Flinta, Nauka, 2003. – 768 s.

44. Korotkov E.M. Upravleniya kachestvom obrazovaniya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M.: Akademicheskii proekt: «Mir», 2006. – 317 s.

45. Kalanova Sh.M. Natsionalnaya otsenka kachestva obrazovaniya v Velikobritanii.// «Vestnik Vyshey shkoly Kazaxstana», 2002, № 4. -S. 134-141.

46. Shadiev T.Sh. Kak gotovyatsya konkurentosposobnye spetsialisty v vuzax Velikobritanii? / T.Sh.Shadiev, Z.Ermatov, B.Kushimov. Pod red. S.S.Gulyamova. – T., 2005. – 116 s.

47. Shamuratov R. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqaruv jarayoni texnologiyalarini takomillashtirish., Namangan davlat univer siteti ilmiy xabarnomasi: soni. 1: 8-son, 70.2019-modda. Kirishrejimi: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss8/70>.

48. Qambarov J.X., Turdalieva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2014 yil. 7-son. -B. 19.

49. G.U. Radjabova *Защита прав частных предпринимателей и роль малого бизнеса в инновационной экономике* - Web of Scholar, 2018. – Т. 3. – №. 3. – S.3-5

50. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. /T.: "Turon-iqbol", 2006.

51. Jurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyot, 2006

52. Barber M., Donnelly K., Rizvi S. Nakanune sxoda laviny. Vysshee obrazovanie i gryadushchaya revolyusiya // Voprosy obrazovaniya. 2013. № 3. S. 152 -236.

53. Dresvyannikov V.A. Postroeniya sistema upravleniya znaniyami na predpriyatii. – M.: «KNORUS», 2006.

54. Gafforova E.B. Sozdanie sistema menedjmenta kachestva v vuze // Metody menedjmenta kachestva. – 2012. – №12 (Gafforova E.B. Creation of a quality management system at a university // Methods of quality anagement. - 2019. - No. 12.).

55. Voronkova O.V. Transformatsiya sistema obrazovaniya v usloviyax globalizatsii // Globalnyy nauchnyy potentsial. 2016. № 5 (62). S. 5 -7.

56. Solomaxo V.L., Serenkov P.S. Normirovanie kachestva v sisteme mejdunarodnykh standartov. Istochnik: Upravlenie kachestvom obrazovaniya: teoriya i praktika / pod red. A.I. Juka, N.N. Koshel. – Minsk : Zorny verasen, 2018. – S. 91 – 117

57. Alikarieva A'loxon. "Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirishda xorij tajribasi", №4 | 2022.

58. Gafforova E.B. Sozdanie sistema menedjmenta kachestva v vuze // Metody menedjmenta kachestva. – 2019. – №12 (Gafforova E.B. Creation of

a quality management system at a university // Methods of quality management. - 2012. - No. 12.).

59. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2002. - 184 b.

60. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M, Akademiya, 2009 y.

61. Xakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish zaruriyati // Arxiv nauchnyx issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 1.

62. Mamajonov I.G, Ta'limda innovatsiya va innovatsion faoliyat// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal. № 6. Noyabr – Dekabr, 2020 yil.

63. Musaxanova Gulnora Mavlyanovna. "Keys-stadi" Texnologiyasi talaba-larning mustaqil ta'lim jarayonida tashkilotchilik qobiliyatini rivojlan - tiruvchi innovatsion metod sifatida. Arxiv issledovaniy. 2, 1 (apr. 2022).

64. F.U.Tursunov, Sh.R.Baxriddinov "Oliy ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarishda muammolar". Eurasian Journal Of Academic Research elektron jurnal. 2022 14- aprel. www.in-academy.uz

Internet saytlari

65. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi kumat portali.

66. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

67. www.ziyonet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

68. www.pedagog.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.

69. www.edu.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.